

D.N.Taylakova

KREATIV PEDAGOGIKA

Zamonaviy yondashuvlar, ijodiy g'oyalar,
samarali natijalar



IJODIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH



INNOVATSION
YONDASHUVLAR



FAOL VA INTERFAOL
METODLAR



SHAXSGA YO'NALTIRILGAN
TA'LIM



KREATIVLIK –
KELAJAK KAFOLATI




IDEA

IMAGINE

CREATE

INSPIRE

ISBN 978-9910-9216-7-4



9 789910 921674



IJODIYLIKNI
RAG'BATLANTIRISH



HAMKORLIK VA
MULOQOT



BILIM VA
TAJIRIBA UYG'UNLIGI



MOTIVATSIYA VA
SAMARADORLIK



KELAJAKKA
YO'NALTIRILGAN TA'LIM

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI

D.N.Taylakova

KREATIV PEDAGOGIKA

**(1-qismi)
DARSLIK**

Mazkur darslik pedagogika oliy o‘quv yurtlarining 60110100-“Pedagogika va psixologiya” bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan.

**«GRAND KONDOR PRINT»
TOSHKENT – 2026**

UDK: 528.441:49.17:12

KBK: 109.679.127

K 051

D.N.Taylakova

KREATIV PEDAGOGIKA (1 qism) [Darslik]: – Toshkent: “GRAND KONDOR PRINT”, 2026 y., 172 b.

Taqrizchilar

B.A.Supiyeva- Renessans ta’lim universiteti “pedagogik ta’lim va psixologiya” kafedrası mudiri, p.f.d.(PhD) dotsent

Z.O.Xojiyeva- Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrası f.f.f.d (PhD) dotsent

M.J.Toshov. – Oriental universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası p.f.f.n dotsent

Ushbu darslik kreativ pedagogika fanidan ilmiy-amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda talabalarga mustaqil bilim olishi uchun tavsiyar berilgan

Oriental universiteti kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qaroriga asosan va 2611-7669-a68d-6d8e-ee78-1186-9079 Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan o‘quv adabiyotini ekspertizadan o‘tkazganlik natijasi bo‘yicha ma’lumotnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9910-9216-7-4

© D.N.Taylakova. 2026
© «GRAND KONDOR PRINT» 2026

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda innovatsion jarayonlar nihoyatda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Bugungi pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oluvchi, ijodiy fikrlovchi hamda shaxsiy kasbiy mahoratini muntazam takomillashtirib boruvchi mutaxassis bo'lishi zarur. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik salohiyati va kreativ yondashuvi dars samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyat taraqqiyotining umumiy darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir tarixiy bosqichda ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ishlab chiqarish taraqqiyoti, madaniy yuksalish hamda ilm-fanning rivoji ta'lim tizimining mazmunini belgilab kelgan. Jamiyat ehtiyojlari o'zgarar ekan, ta'lim oldiga qo'yiladigan vazifalar ham yangilanib boradi. Shu sababli ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari doimiy ravishda takomillashib, zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Ta'lim jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra ikki tomonlama faoliyatni o'z ichiga oladi: bir tomondan pedagogning o'qitish faoliyati, ikkinchi tomondan esa o'quvchilarning bilish va o'zlashtirish faoliyati. Mazkur jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro muloqot va pedagogik ta'sir asosida amalga oshadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, mustaqil fikrlash qobiliyati, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy-axloqiy sifatlari shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzviylikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm bo'lib, jamiyatning tarixiy-madaniy tajribasini yosh avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

“Kreativ pedagogika” fani aynan shu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan talabalarga pedagogik faoliyatda kreativlikning nazariy asoslarini o'rgatish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, noan'anaviy yondashuvlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Fan doirasida pedagogning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, texnologiyalar va

innovatsion vositalar o'rganiladi. Talabalar o'quv jarayonini samarali loyihalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ijodiy yondashish malakalarini egallaydilar.

Yangilanayotgan ta'lim tizimi pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish, yangi avlod darsliklarini yaratish, o'qitish mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Dars shakllarini loyihalashda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog o'quv jarayonini faqat ma'lumot berish bilan cheklamay, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va ijodiy fikrlashga yo'naltirishi lozim.

Mazkur darslikda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, kreativ pedagogikaning predmeti, vazifalari va imkoniyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqot metodlari, shaxsning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiya nazariyasi masalalari zamonaviy pedagogik konsepsiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Turli tarixiy davrlarda pedagogik fikr taraqqiyoti, maktab va maorif tizimining rivojlanish bosqichlari ham ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Darslikning asosiy maqsadi — bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkur, kasbiy mustaqillik va innovatsion yondashuvni shakllantirish, ularni zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashdan iboratdir.

1-MODUL. KREATIV PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI

1-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA

Reja:

1. *Kreativ pedagogika.*
2. *Kreativ pedagogikaning asosiy tushunchalari.*
3. *Kreativ pedagogika fani va akademik fan sifatida.*
4. *Kreativ pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.*

Tayanch tushunchalar: kreativlik, kreativ pedagogika, ta'lim jarayoni, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, o'quvchilar rivoji, individuallik, ijodkorlikning rivojlanishi.

Mazkur bo'limda kreativlik fenomenining mazmun-mohiyati, uning inson faoliyati hamda ijodiy jarayondagi o'rni keng yoritiladi. Shuningdek, kreativ pedagogikaning nazariy poydevori, asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari tahlil qilinib, pedagogik amaliyotda yangicha g'oya va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari ochib beriladi. Kreativ pedagogika ta'lim jarayonida ijodkorlik va yangilikni ustuvor qadriyat sifatida qarab, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va har bir shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yo'nalish sifatida talqin etiladi.

So'nggi yillarda "kreativ pedagogika" atamasi pedagogika fanida keng qo'llanila boshladi. Garchi atama nisbatan yangi bo'lsa-da, ta'lim jarayonida ijodiy va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj anchadan buyon mavjud edi. Zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modeli, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi kreativ pedagogikaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Kreativ pedagogikaning metodologik asoslari pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika, psixologiya, xususiyl fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyalari hamda kasbiy etika kabi fanlarning ilmiy g'oyalariga tayanadi. Ushbu fan bo'lajak pedagoglarda kasbiy yetuklik, ijodiy fikrlash va innovatsion faoliyatni tashkil eta olish kompetensiyasini shakllantirishni maqsad qiladi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning mohiyatini to'laqonli anglash uchun, avvalo, "kreativlik" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish lozim. Ilmiy adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha ta'riflar berilgan.

Ken Robinson kreativlikni "ijtimoiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan original g'oyalar yig'indisi" sifatida izohlaydi. Gardner esa kreativlikni shaxs tomonidan amalga oshiriladigan va yangilik hamda amaliy qiymatga ega bo'lgan faoliyat deb baholaydi. Emebaylning yondashuvida esa kreativlik muayyan soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, noodatiy fikrlash va nostandart yondashuv ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan sifat sifatida talqin qilinadi.

Etimologik jihatdan "creatio" so'zi "yaratish" ma'nosini bildiradi. Biroq kreativlik shunchaki yaratish jarayoni emas, balki insonning ichki ijodiy salohiyatini namoyon etish qobiliyatidir. U faqat san'at yoki adabiyot sohasigagina xos emas. Bugungi kunda kreativlik dizayn, marketing, menejment, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda muvaffaqiyat omili sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotchilar orasida kreativlik va intellekt o'rtasidagi bog'liqlik masalasida yagona fikr mavjud emas. Ba'zi olimlar ularni mustaqil hodisa deb hisoblasalar, boshqalar intellektual salohiyat kreativlikning muhim tarkibiy qismi ekanini ta'kidlaydilar. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqori intellekt darajasi har doim ham yuqori kreativlikni kafolatlamaydi. Kreativlik ko'proq mustaqil fikrlash, tasavvur kengligi, moslashuvchanlik va yangilikka ochiqlik bilan belgilanadi.

Madaniy jihatdan ham kreativlik turlicha talqin qilinadi. G'arb madaniyatida u ko'proq yangilik va noan'anaviylik bilan bog'lansa, Sharq tafakkurida kreativlik ezgulikni yangicha talqinda qayta kashf etish jarayoni sifatida qoraladi. Har ikki yondashuvda ham kreativlik yuqori qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

Patti Drapeau ta'kidlaganidek, kreativ tafakkur muammoni turli nuqtai nazardan ko'ra olish va bir nechta muqobil yechimlarni ilgari surish qobiliyatidir. Bu esa o'quvchilarda divergent (ko'p yo'nalishli) fikrlashni shakllantirishni talab etadi.

Kreativ pedagogika ta'lim jarayonida ikki muhim vazifani bajarishi lozim:

1. O'quv fanlariga nisbatan qiziqishi past bo'lgan o'quvchilarni ham ijodiy yondashuv orqali o'quv jarayoniga faol jalb etish.

2. Pedagoglarni o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va strategiyalar bilan ta'minlash.

Pedagogik kreativlik — bu o'qituvchining an'anaviy fikrlash chegarasidan chiqib, ta'lim samaradorligini oshiruvchi yangi g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyatidir. Pedagogning kreativligi o'quvchilarning ham ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ faoliyatni samarali tashkil etish uchun pedagog quyidagi malakalarga ega bo'lishi zarur:

- gnostik (bilishga oid) malakalar;
- loyihalash va konstruktiv malakalar;
- tadqiqotchilik ko'nikmalari;
- kommunikativ malakalar;
- tashkilotchilik qobiliyatlari;
- texnik va texnologik savodxonlik;
- jarayonni boshqarish va izchillikni ta'minlash

ko'nikmalari. Pedagog kreativligining tarkibiy qismlari

quyidagilardan iborat:

- intellektual komponent;
- motivatsion komponent;
- emotsional komponent;
- axloqiy-o'zini boshqarish komponenti.

Shuningdek, kreativ faoliyat quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: kreativ maqsad qo'yish, ijodiy intilish, g'oyani shakllantirish, uni ifodalash, natijani baholash va o'zini o'zi boshqarish.

Kreativ pedagogika zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, har qanday fan doirasida qo'llanishi mumkin. Uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni mustaqil, tashabbuskor, innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ijodkor pedagog — bu shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning ichki salohiyatini ochib beruvchi, ularda yangilik yaratishga

ishonch uygʻotuvchi va kelajakni bunyod etishga ilhomlantiruvchi shaxsdir.

Har qanday ilmiy fan kabi “Kreativ pedagogika” ham oʻzining aniq belgilangan tarkibiy tuzilmasi va nazariy asoslariga ega. Ushbu fan pedagogik jarayonda ijodiy yondashuvni shakllantirish hamda uni tizimli ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi. Kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi quyidagi yoʻnalishlarni qamrab oladi:

1. Kreativ taʼlim asoslari

Kreativ taʼlimning nazariy asoslari uning maqsadi, vazifalari, obʼekti, predmeti va subʼektlarini aniqlashdan boshlanadi. Shuningdek, mazkur yoʻnalishda:

- taʼlim mazmuni va tamoyillari;
- metodologik yondashuvlar;
- tashkiliy shakllar;
- interfaol metodlar;
- pedagogik vositalar;
- oʻqitish metodikasi;
- zamonaviy taʼlim texnologiyalari atroflicha oʻrganiladi.

Kreativ taʼlimning bosh maqsadi — oʻquvchilarda mustaqil, erkin va yangicha fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish, ularni muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Uning vazifalari esa pedagog va oʻquvchilar faoliyatini ijodiy yoʻnaltirish, taʼlim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish hamda shaxsiy salohiyatni toʻliq namoyon etishga sharoit yaratishdan iborat.

2. Kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari

Kreativ pedagogika malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning ijodiy salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishni koʻzda tutadi. Bu jarayon:

- qiziqish va motivatsiyani shakllantirish;
- ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil faoliyatni tashkil etish;
- amaliy ijodiy tajriba orttirish;
- oʻz-oʻzini baholash va takomillashtirish bosqichlarini oʻz ichiga oladi.

Shaxsning yosh davriga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish kreativlikni samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kreativ pedagogikaning mohiyati uning konseptual apparatini tashkil etuvchi

asosiy tushunchalar orqali ochib beriladi. Ushbu tushunchalar pedagogik jarayonning nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi hamda ta'lim tizimida ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativ pedagogika doirasida ijodkorlik, ijodkor shaxs, kreativ shaxs va bunyodkor shaxs kabi tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu kategoriyalar orqali shaxsning ijodiy imkoniyatlari va pedagogik faoliyatdagi innovatsion yondashuvlar izohlanadi.

Ijodkorlik — bu shaxsning faoliyat jarayonida yangilik yaratish, mavjud muammolarga o'ziga xos va samarali yechim topish hamda yaratilgan natijaning ijtimoiy yoki amaliy ahamiyatini namoyon eta olish qobiliyatidir. Ijodkorlik inson tafakkurining eng yuqori bosqichlaridan biri bo'lib, u mustaqil fikrlash, tasavvur kengligi, muammoni turli rakurslardan ko'ra bilish va noodatiy qarorlar qabul qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik natijasida yaratilgan mahsulot — bu nafaqat yangi g'oya yoki moddiy obyekt, balki yangicha yondashuv, uslub yoki metod ham bo'lishi mumkin. Muhimi, u jamiyat ehtiyojlariga javob berishi va ma'lum qiymat kasb etishi lozim.

Ijodkor shaxs esa ijodiy jarayonni ongli ravishda tashkil eta oladigan, aniq maqsad sari yo'naltirilgan va samarali natijaga erisha oladigan insondir. Bunday shaxs yangilik yaratish jarayonida ichki motivatsiya, qat'iyat, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni namoyon etadi. Ijodkor shaxs o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni chuqur tahlil qiladi, muammoni hal etishda turli variantlarni sinab ko'radi va natijaga erishish yo'lida izchil harakat qiladi. U ijodiy jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni to'siq emas, balki yangi imkoniyat sifatida qabul qiladi.

Kreativ shaxs tushunchasi ijodkorlikning zamonaviy talqinini ifodalaydi. Kreativ shaxs muammolarga nostandart yondashuvni tanlay oladigan, yangicha fikrlashga moyil, o'ziga xos g'oyalarni ilgari suruvchi hamda ijodiy jarayonda faol ishtirok etuvchi insondir. U moslashuvchan tafakkurga ega bo'lib, tezkor fikrlay oladi, o'zgarishlarga ochiq bo'ladi va yangi sharoitlarga tez moslasha oladi. Kreativ shaxs uchun nafaqat yakuniy natija, balki jarayonning o'zi ham muhimdir. U ijodiy faoliyat orqali o'z

imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, yangi tajriba orttiradi va doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi.

Bunyodkor shaxs esa ijodiy faoliyatni kengroq ijtimoiy maydonga olib chiqadigan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi obyektiv yangiliklar yaratishga qodir bo'lgan insondir. U yaratgan mahsulot yoki g'oya keng miqyosda e'tirof etiladi va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bunyodkor shaxsning faoliyati individual ijod darajasidan yuqori bo'lib, u jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaxs yuksak mas'uliyat, keng dunyoqarash, strategik fikrlash va barqaror maqsadga yo'naltirilganlik kabi fazilatlariga ega bo'ladi.

Shunday qilib, kreativ pedagogikaning asosiy tushunchalari shaxsning ijodiy salohiyatini anglash, uni rivojlantirish va ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkonini beradi. Mazkur tushunchalar o'qituvchining kasbiy faoliyatida yangicha yondashuvni shakllantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, kreativ pedagogika fanining tarkibiy tuzilmasi va konseptual asoslari pedagogik jarayonni ijodiy yo'naltirish, o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirish hamda zamonaviy talablar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur fan pedagogik nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirib, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Bugungi davrni aql-zakovat, ma'naviyat va ma'rifat uzluksiz taraqqiy etib borayotgan zamon deb atash mumkin. Jamiyat taraqqiyoti endilikda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki inson kapitalining rivojlanish darajasi, ma'naviy yetuklik, axloqiy mas'uliyat va intellektual salohiyat bilan belgilanmoqda. Insonparvarlik, komillik, erkinlik va demokratik qadriyatlar huquqiy hamda axloqiy-estetik tamoyillar sifatida zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy mezoniga aylanmoqda.

Shu bois yosh avlodda komillik, insonparvarlik, vatanparvarlik va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish ijtimoiy zaruratga aylanadi. Bu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish esa pedagogika fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Natijada pedagogika ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida alohida va yetakchi o'rin egallaydi.

Pedagogika — tarbiya, ta'lim va ma'lumot jarayonlarini o'rganuvchi hamda

ularni ilmiy asosda tashkil etuvchi fandır. U insonni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida pedagogika doimo jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilgan. Chunki tarbiya yosh avlodga ijtimoiy-tarixiy tajribani, zarur bilim va amaliy ko'nikmalarni yetkazish vositasi bo'lib kelgan.

Shu ma'noda buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiyaning ahamiyatini "yo hayot, yo mamot" darajasidagi masala sifatida baholagan. Bu fikr tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi o'rnini ifodalaydi.

Pedagogikaning predmeti — barkamol avlodni tarbiyalash, uni mehnatga, hayotga va ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlash jarayonidir. Har bir tarixiy bosqichda tarbiyaning maqsadi, mazmuni va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda o'zgarib boradi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari — tarbiya, ta'lim va ma'lumotdir. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etadi.

Tarbiya — shaxsda ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayon. Keng ma'noda tarbiya jamiyatning shaxsga ta'siri bo'lsa, tor ma'noda u aniq maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni anglatadi.

Ta'lim — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi maqsadli, rejalashtirilgan hamkorlik jarayoni bo'lib, unda bilimlar tizimli ravishda o'zlashtiriladi, dunyoqarash shakllanadi va intellektual salohiyat rivojlanadi.

Ma'lumot esa o'qitish va mustaqil bilim olish jarayonining natijasi sifatida shaxsda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka hamda ilmiy dunyoqarash majmuasini ifodalaydi.

Ta'lim va tarbiya uyg'un holda olib borilgandagina komil inson shakllanadi. Chunki bilim berish jarayoni tarbiyaviy maqsadsiz samarali bo'la olmaydi.

Pedagogika insonshunoslik fanlari tizimida alohida va muhim o'rin egallaydi. U insonning shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonini o'rganadigan kompleks fan sifatida psixologiya, sotsiologiya, falsafa, fiziologiya, madaniyatshunoslik kabi qator fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Pedagogikaning mazmuni va metodologiyasi aynan ushbu fanlar bilan o'zaro integratsiya jarayonida boyib boradi. Masalan, psixologiya shaxsning ruhiy

rivojlanish qonuniyatlarini ochib bersa, sotsiologiya uning jamiyat bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganadi, falsafa esa ta’lim va tarbiyaning maqsadi, qadriyatlari va g‘oyaviy asoslarini belgilab beradi.

Kreativ pedagogika esa pedagogika fanining zamonaviy yo‘nalishi sifatida ta’lim jarayonini ijodiy asosda tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, u bir qator pedagogik fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Jumladan, umumiy pedagogika ta’lim va tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini belgilab bersa, tarbiya pedagogikasi shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanish jarayonini o‘rganadi. Didaktika o‘qitish nazariyasini ishlab chiqadi va ta’lim mazmunini belgilaydi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish usullarini yoritadi. Pedagogik diagnostika va korrektsiya o‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash hamda kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Pedagogik prognostika ta’lim jarayonining istiqboldagi natijalarini oldindan belgilashga xizmat qiladi. Pedagogik aksiologiya ta’lim-tarbiyadagi qadriyatlar tizimini o‘rganadi, pedagogik riskologiya esa ta’lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolarni tahlil qiladi. Oliy ta’lim didaktikasi esa mutaxassislar tayyorlash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Ushbu fanlar o‘zaro uyg‘unlikda talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini oshirishga, ularni zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativ pedagogika va uning asosiy kategoriyalari ta’lim jarayonida shaxsning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan nazariy asosni tashkil etadi. Kreativ pedagogikaning markazida shaxs turadi va uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, shaxs qobiliyati, ta’lim va tarbiyaga moyillik, bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va malaka shakllantirish, kompetensiyani rivojlantirish, yangicha fikrlashni tarkib toptirish hamda tafakkurni rivojlantirish kabi kategoriyalar muhim o‘rin tutadi.

Shaxs qobiliyati insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini belgilovchi psixologik xususiyatlar majmui bo‘lib, u tabiiy layoqat va ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanadi. Bilim o‘zlashtirish jarayoni esa nazariy va amaliy bilimlarni anglash, ularni mustaqil ravishda qo‘llay olish darajasiga yetkazish bilan xarakterlanadi. Ko‘nikma muayyan faoliyatni bajarish qobiliyatini

ifodalasa, malaka avtomatlashtirilgan harakatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiya esa egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni real hayot va kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olish salohiyatidir.

Yangicha fikr shakllantirish nostandart yondashuv asosida muammolarni hal eta olish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Bu jarayon ijodiy tafakkur, moslashuvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkurni rivojlantirish esa shaxsning intellektual o'sishi jarayonida yuz beradigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Bu o'zgarishlar natijasida insonning dunyoqarashi kengayadi, tahliliy fikrlashi chuqurlashadi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanining zamonaviy maqsadi umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimi uchun ma'naviy-axloqiy yetuk, kasbiy kompetensiyalarga ega, ijodiy va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Kreativ pedagogika esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi. U ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada pedagogik jarayon nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni komillikka yetaklovchi, uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. *Kreativlik tushunchasi nimani bildiradi?*
2. *Kreativ pedagogikaning maqsadi nima va u qanday vazifalarni bajaradi?*
3. *Kreativ pedagogikaning obyekti va predmeti nimadan iborat?*
4. *Kreativ pedagogikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) qaysilar?*
5. *Kreativ pedagogika qaysi fanlar bilan bog'liq va qanday rivojlanadi?*
6. *Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llaniladi?*
7. *Ta'limda ijodiy yondashuv nima ekanligini tushuntiring?*

2-MAVZU. KREATIVLIK TA'LIM MUHITI: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI

Reja:

1. *Kreativ ta'limning tabaqalanishi va davriyligi.*
2. *Kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogic shartlar.*

Tayanch tushunchalar: *Kreativ, kreativlik, kreativ ta'lim, kreativ ta'lim muhiti, kreativlik qobiliyati, pedagogik texnologiyalar, pedagogik ijodkorlik*

“Kreativ ta'lim muhiti” tushunchasi zamonaviy pedagogikaning muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar majmuini anglatadi. Bunday muhitda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko'rsatishi, yangilik yaratishga intilishi va muammolarni nostandart yo'l bilan hal etish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Kreativ ta'lim muhiti – bu shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy va innovatsion makondir. Bunday muhit erkin fikr almashish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ya'ni o'quvchilar o'z fikrini qo'rqmasdan, bosimsiz, ochiq va mustaqil tarzda bayon qila oladilar. Ularning har bir g'oyasi qadrlanadi, muhokama qilinadi va rivojlantiriladi. Bu esa o'quvchilarda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va faollikni kuchaytiradi.

Kreativ muhitning muhim xususiyatlaridan biri – xatolarga tolerant munosabatdir. Bunday sharoitda xato qilish salbiy baholanmaydi, aksincha o'rganish va tajriba orttirishning tabiiy bosqichi sifatida qabul qilinadi. O'quvchilar xato qilishdan qo'rqmaydi, yangi g'oyalarni sinab ko'rishga jur'at topadi. Natijada ular mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va alternativ yechimlar topishga o'rganadilar.

Muammoli vaziyatlarni yaratish ham kreativ ta'lim muhitining asosiy tarkibiy qismidir. O'qituvchi dars jarayonida real hayotiy muammolarni qo'yadi, savollar orqali o'quvchini fikrlashga undaydi, izlanishga yo'naltiradi. Bu jarayon

o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Muammoli ta'lim orqali o'quvchi tayyor bilimni emas, balki bilimni izlab topish ko'nikmasini egallaydi.

Interfaol metodlardan foydalanish esa o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "Rol o'ynash", "Case-study" kabi metodlar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlaydi, fikr almashadi va jamoada ishlash malakasini shakllantiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy faollikni oshiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kreativ muhitning markazida turadi. Har bir o'quvchi individual shaxs sifatida qabul qilinadi, uning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlari inobatga olinadi. O'qituvchi differensial yondashuv asosida topshiriqlar beradi, har bir o'quvchining rivojlanish sur'atini hisobga oladi. Bu esa o'quvchilarning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Individual qiziqish va ehtiyojlarni inobatga olish natijasida o'quvchi o'zini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida his qiladi. U nafaqat bilim oladi, balki o'z fikrini himoya qiladi, qaror qabul qiladi va o'zining ijodiy salohiyatini namoyon etadi.

Shunday qilib, kreativ ta'lim muhiti – bu o'quvchini mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va o'z imkoniyatlariga ishonadigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik makondir. Bunday muhitda pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interfaol usullar orqali o'quvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi hamda ularning intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratadi.

Bugungi globallashuv jarayoni, texnologik taraqqiyot va axborot oqimining keskin ortishi har bir jamiyatdan moslashuvchan, innovatsion fikrlovchi va kreativ shaxslarni talab qilmoqda. Tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda muvaffaqiyatga erishish uchun faqat tayyor bilimlar yetarli emas; yangilik yaratish, muammolarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois pedagogik jarayonda talaba shaxsining kreativ salohiyatini

aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalasi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylangan. Kreativlik bugungi ta'lim tizimining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

“Kreativlik” atamasi lotincha “creare” — yaratish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yangi g'oyalar ishlab chiqish va yangilik yaratishga tayyorgarlikni anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan kreativlik shaxsning ijodiy qobiliyati bo'lib, u iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi mustaqil omil sifatida qaraladi.

Pedagogik kreativlik esa o'qituvchining an'anaviy yondashuvlardan chekinib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yangi metod va g'oyalarni ishlab chiqish, mavjud muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatidir. Bunday pedagog dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularni faol fikrlashga undaydi.

Kreativ pedagogika mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib, pedagogika tarixi, ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyalari hamda kasbiy etika bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ushbu yo'nalish pedagogik nazariyani innovatsion paradigmalariga mos ravishda boyitadi.

Doimiy o'zgarib turuvchi ijtimoiy va iqtisodiy muhit shaxsdan moslashuvchanlikni, yangilikka ochiqlikni va uzluksiz o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Kreativ shaxsning shakllanishi inson ontogenezing barcha bosqichlarida — bolalikdan boshlab butun umr davomida — izchil ravishda qo'llab-quvvatlanishi lozim.

An'anaviy professional tajriba ko'pincha bilim, ko'nikma va malakalarning yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Biroq kreativ faoliyat tajribasi bundan kengroq tushunchadir. U yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish orqali uning kreativ faoliyati tajribasini rivojlantirish masalalari keng o'rganilmoqda. Bu jarayon ta'lim tizimining uzluksizligini va izchilligini

ta'minlashni talab qiladi.

Amerikalik psixolog Avraam Maslou kreativlikni har bir insonda mavjud bo'lgan, ammo noto'g'ri tarbiya yoki ijtimoiy stereotiplar ta'sirida susayib qolgan tabiiy ijodiy salohiyat sifatida izohlaydi. Uning fikricha, insonning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi uchun qulay psixologik muhit va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim jarayoni zarur.

Bu yondashuv kreativ ta'lim muhitining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki shaxsning ichki ijodiy resurslari aynan erkin, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi pedagogik sharoitda namoyon bo'ladi.

Kreativ ta'lim muhiti — bu o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik makon bo'lib, u shaxsning mustaqil, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimi ana shunday muhitni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Kreativ pedagogika esa ushbu jarayonning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqib, ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi.

Kreativlik qobiliyati nima?

Kreativlik qobiliyati — bu shaxsning murakkab va noma'lum vaziyatlarda yangi g'oyalarni ilgari surish, noodatiy yechimlar topish hamda yangilik yaratishga tayyorligini ifodalovchi intellektual va ruhiy salohiyatidir. U shaxs tafakkuri va ichki dunyosining turli sharoitlarda namoyon bo'lishi bilan bog'liq o'ziga xos fikrlash modelidir.

Ijodkorlikka berilgan turli ta'riflar uning ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi. Ayrim manbalarda u “aql gimnastikasi” sifatida talqin qilinadi, ya'ni tafakkurni doimiy ravishda harakatda ushlab turuvchi, insonni yangilik sari undovchi faoliyat turi sifatida qaraladi. Boshqa yondashuvlarda esa ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish, bilimlarni yangicha talqin qilish, maqsad sari qat'iyat bilan intilish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zligini anglash jarayoni sifatida baholanadi.

Demak, kreativlik — bu nafaqat g'oya yaratish, balki ichki intilish, mustaqil

fikrlash va yangilikka ochiqlikni o'z ichiga olgan murakkab psixologik sifatdir.

O'qituvchi kreativligi — bu pedagogning an'anaviy fikrlash chegaralaridan chiqib, ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni ishlab chiqish hamda pedagogik muammolarni ijodiy hal etishga tayyorligini ifodalovchi kasbiy qobiliyatidir.

Pedagogik ijodkorlik quyidagi ikki muhim vazifani amalga oshirishni kafolatlashi lozim:

1. O'quv fanlarini o'zlashtirishda qiynalayotgan yoki qiziqishi sust bo'lgan o'quvchilarni dars jarayoniga jalb eta olish.

2. Ta'lim mazmunini qiziqarli va mazmunli shaklda tashkil etib, o'quvchilarda motivatsiyani oshirish.

Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, buyuk olim va ixtirochilar nafaqat chuqur fundamental bilimlarga, balki algoritmik fikrlash, evristik usullar va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lganlar. Bu esa kreativlikning bilim va tafakkur uyg'unligida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Ingliz psixologi E. P. Torrens kreativlikning quyidagi tarkibiy jihatlarini ajratib ko'rsatadi:

- muammoni ilgari surish va ilmiy farazlar yaratish;
- taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;
- natijalarni shakllantirish asosida muammoni aniqlashtirish;
- bilim va amaliy harakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga sezgirlik.

Ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket) va divergent (yaxlit, intuitiv) tafakkur uyg'unligi zarur. Bunday kombinatsiya natijasida tafakkurning ravonligi, moslashuvchanligi va o'ziga xosligi shakllanadi.

Kreativ shaxsda stenik his-tuyg'ular — ijod jarayonidan zavqlanish, qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik, natijadan mamnunlik va muvaffaqiyatga ishonch kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Bu esa kreativlikning nafaqat intellektual, balki emotsional asosga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Ijodiy shaxsning shakllanishi — bu amalga oshirilayotgan ijodiy faoliyat va

erishilgan natijalarga mos ravishda shaxsning rivojlanish jarayonidir. Ushbu jarayonning sur'ati biologik, ijtimoiy va individual omillar bilan belgilanadi. Shuningdek, hayotiy tajriba, kasbiy muhit va shaxsning ichki motivatsiyasi ham muhim rol o'ynaydi.

Ijodkor shaxsni shakllantirish bilan ijodiy ta'lim o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Agar ta'lim jarayoni ijodiy tashkil etilsa, u shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ pedagogika ijodiy ta'limning nazariy va amaliy asoslarini o'rganuvchi fan bo'lib, u an'anaviy majburlash pedagogikasi yoki reproduktiv yondashuvlardan farq qiladi. Bu yo'nalish o'quvchini bilim iste'molchisi emas, balki bilim yaratuvchisi sifatida ko'radi.

Kreativ pedagogika – bu ta'lim jarayoniga yangicha fikrlash, yangicha yondashuv va innovatsion metodlarni olib kiruvchi zamonaviy pedagogik yo'nalishdir. U an'anaviy “tayyor bilimni berish” modelidan farqli ravishda o'quvchini faol subyekt sifatida ko'radi va uni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bunda o'quvchi nafaqat ma'lumotni eslab qoladi, balki uni tahlil qiladi, solishtiradi, xulosa chiqaradi va yangi g'oyalar yaratishga harakat qiladi. Natijada tafakkur mustaqilligi, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni kelajakni yaratuvchi shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi. Chunki bugungi globallashuv va tezkor o'zgarishlar davrida jamiyatga oddiy ijrochilar emas, balki tashabbuskor, muammolarga noodatiy yechim topa oladigan, yangilik yaratishga qodir shaxslar zarur. Kreativ yondashuv orqali o'quvchi o'z imkoniyatlarini anglaydi, o'ziga ishonch hosil qiladi va shaxsiy mas'uliyatni his etadi.

Mazkur pedagogik yo'nalish barcha fanlarda qo'llanish imkoniyatiga ega. Matematika, ona tili, tarix, tabiiy fanlar yoki san'at bo'lishidan qat'i nazar, har bir fan doirasida muammoli vaziyat yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, loyiha va tadqiqot ishlari tashkil etish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Kreativ pedagogika o'qitish va o'rganish jarayonini yangicha metodologik asosda tashkil etadi. Unda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, hamkorlik pedagogikasi, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, refleksiya va o'z-o'zini baholash kabi usullar ustuvor hisoblanadi. O'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va motivator rolini bajaradi. O'quvchi esa bilimni izlab topuvchi, yaratuvchi va tadqiq etuvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, kreativ pedagogika – bu zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishi bo'lib, u o'quvchilarning intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini samarali, mazmunli va innovatsion darajaga olib chiqadi.

Kreativlikni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiruvchi, psixologik to'siqlarni kamaytiruvchi va ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi metodlardan foydalanish zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida ustuvor yo'nalish sifatida dialogik muloqot, hamkorlikda muammo yechish va interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda ta'lim jarayoni biryoqlama ma'ruza shaklidan ko'ra, o'quvchini faol fikrlovchi va ishtirokchi subyektga aylantirishni talab etadi. Dialogik muloqot asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qiladi, savol beradi, munosabat bildiradi va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rganadi. Bu esa kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Juftlik va guruhli ishlash metodlari o'quvchilarda hamkorlikda faoliyat yuritish, fikr almashish va umumiy qarorga kelish ko'nikmalarini shakllantiradi. Guruhda ishlash jarayonida har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi, mas'uliyatni his qiladi va o'z hissasini qo'shadi. Bu esa jamoaviy fikrlashni, o'zaro yordam va birdamlikni kuchaytiradi.

Ilmiy-tadqiqot loyihalari o'quvchilarni mustaqil izlanishga, axborotni tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Loyiha asosida o'qitish jarayonida o'quvchi muammoni aniqlaydi, maqsad qo'yadi, reja tuzadi va natijani taqdim etadi. Bu esa unda analitik tafakkur, mas'uliyat va ijodiy yondashuvni

rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Ular muayyan rolni bajarish orqali voqea-hodisani chuqurroq anglaydi, empatiya va muomala madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, tarix, adabiyot, huquq va pedagogika fanlarida bu metod samarali natija beradi.

Muammoli vaziyatlar yaratish esa o'quvchini tayyor javobni eslab qolishga emas, balki mustaqil fikr yuritishga undaydi. O'qituvchi savol yoki masala orqali o'quvchini o'ylashga majbur qiladi, turli yechim variantlarini izlashga yo'naltiradi. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash va dalillash ko'nikmalari shakllanadi.

Bahs-munozaralar esa o'quvchilarda o'z fikrini asoslab berish, dalillar keltirish va qarama-qarshi nuqtai nazarni tahlil qilish malakasini rivojlantiradi. Munozara madaniyati orqali o'quvchi nafaqat gapirishni, balki tinglashni ham o'rganadi.

Umuman olganda, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan ushbu interfaol metodlar o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantiradi, ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan, hamkorlikda ishlay oladigan va innovatsion g'oyalar ilgari sura oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

1. Ta'lim muhiti: mohiyat va tarkibiy xususiyatlar

Ta'lim muhiti — bu ta'lim jarayonining mazmuni, tashkil etilishi va natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy hamda texnologik shart-sharoitlar majmuidir. Zamonaviy ta'lim muhitining samaradorligi, avvalo, uning quyidagi funksional xususiyatlari bilan belgilanadi:

Moslashuvchanlik — ta'lim tuzilmalarining shaxs, atrof-muhit va jamiyat ehtiyojlaridagi o'zgarishlarga mos ravishda tezkor qayta qurila olish qobiliyati. Bunda ta'lim tizimi yangilanib borayotgan talablarni hisobga olgan holda o'z mazmuni, metodlari va texnologiyalarini moslashtiradi.

Izchillik va uzluksizlik — muhit elementlari (pedagog, talaba, mazmun, metod, texnologiya, boshqaruv va boshqalar) faoliyatida o'zaro ta'sirning uzviyligi hamda jarayonning bosqichma-bosqich, mantiqiy davom etishi bilan ifodalanadi.

Bu sifat ta'lim jarayonida parokandalikni kamaytirib, barqaror natijaga erishish imkonini beradi.

O'zgaruvchanlik — ta'lim muhitining aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari hamda jamiyat taraqqiyoti talablariga muvofiq yangilanib borishini anglatadi. Ya'ni muhit real ehtiyojni sezadi, tahlil qiladi va rivojlanish yo'nalishini o'zgartira oladi. **Integratsiya** — ta'lim tizimi tarkibiy tuzilmalarining hamkorligini kuchaytirish orqali muammolarni kompleks hal qilishni ta'minlaydi. Integratsiya fanlararo yondashuv, nazariya va amaliyotning uyg'unligi, ta'lim va tarbiyaning bir butun jarayon sifatida olib borilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ochiqlik va demokratik boshqaruv — ta'lim subyektlarining boshqaruvda keng ishtirok etishini, ta'lim-tarbiya jarayonlarining shaffofligini hamda hamkorlik shakllarining demokratik tamoyillar asosida tashkil etilishini anglatadi.

Faol hamkorlik va muloqot — pedagogik yordam asosida o'quv jarayonida barcha ishtirokchilarning birgalikdagi faol kommunikatsiyaga kirishishini nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi faqat "yo'naltiruvchi" rolida qolmay, balki o'quvchini qo'llab-quvvatlovchi va uning rivojiga xizmat qiluvchi hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

2. Atrof-muhit va bo'lajak o'qituvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish

Ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Chunki aynan ta'lim jarayonida shakllanadigan psixologik, ijtimoiy va ma'naviy muhit kelajakdagi pedagogning kasbiy qiyofasini belgilaydi. Agar ta'lim muhiti sog'lom, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi bo'lsa, unda shaxsning ijodiy salohiyati tabiiy ravishda namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi.

Bunday muhitda avvalo shaxsning jismoniy va intellektual salomatligiga e'tibor qaratiladi. Sog'lom psixologik atmosfera, ortiqcha bosim va qo'rquvning yo'qligi, fikr bildirish erkinligi bo'lajak o'qituvchining tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Intellektual salomatlik esa mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoga yangicha yondashish va ilmiy izlanishga intilish orqali rivojlanadi.

Shuningdek, ma'naviy-axloqiy barqarorlik kreativ pedagog shaxsining asosiy

tayanchidir. Ta'lim muhiti hurmat, adolat, mas'uliyat va hamkorlik tamoyillari asosida qurilganda, bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiga sadoqatli, axloqan yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa uning kelgusida o'quvchilarga nafaqat bilim, balki tarbiya ham bera olishiga zamin yaratadi.

Hissiy muvozanat va estetik did ham kreativ sifatlarning ajralmas qismidir. Ijobiy emotsional muhit, o'zaro qo'llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatga rag'bat hissiy barqarorlikni ta'minlaydi. Estetik muhit — tartibli auditoriya, zamonaviy did bilan bezatilgan ta'lim makoni, madaniy tadbirlar — shaxsning didini, go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Intizom va o'zini boshqarish ko'nikmalari esa bo'lajak o'qituvchining professional yetukligini belgilaydi. Kreativlik faqat erkinlik bilan emas, balki ichki tartib, mas'uliyat va o'z faoliyatini rejalashtira olish bilan ham uyg'un bo'lishi zarur. Ta'lim muhitida refleksiya, o'z-o'zini baholash va mustaqil faoliyatga keng o'rin berilishi shaxsning o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantiradi.

Demak, samarali tashkil etilgan ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat bilim va kasbiy malakani, balki kreativ tafakkur, ma'naviy yetuklik, hissiy barqarorlik va o'zini boshqarish kabi muhim sifatlarni ham har tomonlama rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakda zamonaviy, innovatsion va ijodkor pedagog sifatida faoliyat yuritishiga mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning ijodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy belgilar sifatida majburiyatni zimmasiga ola bilish, improvizatsiya qilishga moyillik, kreativ fikrlash, o'zini muntazam takomillashtirish hamda yangilikka qiziqish kabi sifatlar ko'rsatiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasasi pedagogi yosh avlodni doimiy yangilanib borayotgan jamiyat hayotiga tayyorlash va ularni innovatsiyalar bilan hamnafas rivojlantirish jarayonida yetakchi kasbiy rolni bajaradi.

3. Kreativlikning ta'limdagi mazmuni

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkil etishda ijodiy yondashuvni talab qiladigan sifat bo'lib, o'qitishda turli usullar, bilimlar va ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, ta'lim texnologiyalaridan noodatiy va samarali foydalanish orqali namoyon bo'ladi.

Kreativlikning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: agar intellekt insonning aqliy salohiyatini bildirsa, kreativlik esa shu salohiyatdan maqsadga yo'naltirilgan va erkin tarzda foydalanish, yangicha yechimlarni ilgari surish qobiliyatidir.

Kreativlik tushunchasi XX asrning 60-yillaridan boshlab Angliya-Amerika psixologiyasida ilmiy muomalaga faol kirib kelgan va inson tafakkurining muhim jihati sifatida tadqiq etila boshlagan. Ayniqsa, amerikalik psixolog **Joy Paul Guilford** (J. Guilford) kreativlikni ilmiy asosda o'rganib, uni intellekt tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. U divergent tafakkur nazariyasini ilgari surib, insonning bir muammo yuzasidan ko'plab, turlicha va noodatiy yechimlar topish qobiliyatini kreativlikning asosiy mezoni deb hisoblagan.

J. Guilford kreativlikning individual ko'rsatkichlari sifatida bir qator muhim qobiliyatlarni ajratib ko'rsatadi. Jumladan, fikrni maqsadga muvofiq yo'naltirish — bu insonning tafakkur jarayonini aniq vazifa tomon safarbar eta olishidir. Originallik esa noodatiy, boshqalarnikidan farq qiluvchi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini anglatadi. Qiziquvchanlik shaxsning yangilikka intilishi, atrof-muhit hodisalariga faol munosabat bildirishini ifodalaydi. Farazlar yaratish qobiliyati muammoga turli ehtimoliy yechimlarni taklif qilish bilan bog'liq bo'lsa, tasavvur (fantaziya) esa mavjud bilim va tajriba asosida yangi obraz va g'oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv kreativlikni faqat badiiy ijod bilan emas, balki intellektual faoliyatning keng ko'lamli ko'rinishi sifatida talqin etishga zamin yaratdi. Kreativlik endilikda ta'lim jarayonining muhim maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning ijodiy-intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va innovatsion tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Natijada ta'lim jarayoni passiv bilim olishdan faol izlanish, tadqiqot va yaratuvchanlikka yo'naltirilmoqda. Bu esa yoshlarning mustaqil fikrlovchi, innovatsion g'oyalar ilgari sura oladigan va zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

4. Kreativlikning turlari va mezonlari

Amerikalik psixolog **Abraham Maslow** kreativlikni inson shaxsining o'zini namoyon etish jarayoni bilan bevosita bog'lab talqin qiladi. U kreativlikni faqat noyob iste'dod egalari faoliyati bilan cheklab qo'ymaydi, balki har bir inson tabiatida mavjud bo'lgan imkoniyat sifatida ko'radi. Maslow nazariyasiga ko'ra, kreativlik ikki asosiy turga ajratiladi.

Birinchisi — iste'dod kreativligi. Bu tur yuqori natija, yuksak darajadagi ijodiy mahsulot, jamiyat tomonidan tan olinadigan kashfiyot yoki san'at asari bilan bog'liqdir. Bunday kreativlik ko'proq ilm-fan, san'at, texnika yoki adabiyot sohasida namoyon bo'ladi. U chuqur bilim, katta salohiyat va yuqori darajadagi ijodiy tafakkurni talab qiladi. Ikkinchisi — o'z-o'zini aktallashtirish kreativligi. Bu esa shaxsning kundalik hayotda va kasbiy faoliyatida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi bilan bog'liqdir. Maslow fikricha, har bir inson o'z salohiyatini ochishga, o'zini takomillashtirishga intiladi. Masalan, o'qituvchining darsni noodatiy tashkil etishi, oddiy vaziyatga ijodiy yondashuvi yoki muammoga yangicha yechim topishi ham kreativlikning namunasidir.

Bu turdagi kreativlik har bir inson uchun ochiq va rivojlantirilishi mumkin bo'lgan jihat hisoblanadi.

Maslow kreativ jarayonni ikki darajada ko'rib chiqadi. Birinchi daraja — ixtiyorsiz holat bo'lib, u ilhom, birdan keladigan g'oya, ruhiy ko'tarinkilik bilan tavsiflanadi. Bu paytda inson ongida kutilmagan, yorqin va original fikr paydo bo'ladi. Ilhom jarayoni ko'pincha kuchli emotsional holat bilan birga kechadi.

Ikkinchi daraja — ixtiyoriy holatdir. Bu esa mehnat, uzluksiz o'qish, tajriba orttirish va o'z ustida muntazam ishlash orqali shakllanadi. Maslow ta'kidlaganidek, haqiqiy kreativ natija faqat ilhom bilan emas, balki izchil mehnat va intizom bilan yuzaga keladi. Ya'ni g'oya paydo bo'lishi mumkin, ammo uni

mukammal mahsulotga aylantirish uchun sabr, bilim va qat'iyat zarur.

Kreativ fikrlashni egallagan o'quvchi dolzarb muammolarni hal etishda yangi texnologiyalardan samarali foydalanadi, hali mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashga tayyor bo'ladi, mashina bajara olmaydigan ijodiy vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi va global muammolarga yangicha yondashuv taklif eta oladi. Shu sababli maktablarda kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu ehtiyoj nafaqat mehnat bozori talablari bilan, balki shaxsning ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan ham bog'liqdir.

Maktabning jamiyat hayotidagi o'rni shundan iboratki, u o'quvchida

o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his etish, uning ravnaqi uchun hissa qo'shish va fuqarolik burchini anglash tuyg'ularini shakllantiradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarning hodisa va vaziyatlarga yangicha yondashishi ta'minlanadi, bu esa ularning bilim olish jarayonini samaraliroq qiladi. O'quvchining qiziquvchanligi va ichki motivatsiyasini oshirish uchun uning ijodiy imkoniyatlarini ochib beruvchi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion o'qitish shakllarini joriy etish zarur. Bunday yondashuv, ayniqsa, ta'lim jarayoniga qiziqishi sust bo'lgan o'quvchilarning o'z fikrini ifoda etishiga va qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlash boshqa qobiliyatlar singari maqsadli va amaliy yondashuv asosida rivojlantiriladi. Ayrim o'qituvchilar nazarida o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quv dasturidan tashqari qo'shimcha faoliyat sifatida ko'riladi. Aslida esa kreativ fikrlash barcha fanlar kesimida shakllanishi mumkin. U yodlashga asoslangan an'anaviy usullardan farqli ravishda, izlanish, kashfiyot va muammoni hal etish jarayonlari orqali rivojlanadi.

Bundan tashqari, o'quvchining kreativ salohiyatining shakllanishi uning ehtiyojlar yo'nalishi va "men konsepsiyasi" bilan uzviy bog'liqdir. Shaxs o'z imkoniyatlarini anglagan sari, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvga intilishi kuchayadi. Ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik vositalaridan biri dialog hisoblanadi. Dialog o'quvchining fikrini erkin bayon etishiga, muhokama qilishga va o'z pozitsiyasini asoslashga imkon yaratadi.

Psixologlar tomonidan shaxsning kreativligini aniqlash usullaridan biri sifatida insho yozdirish keng qo'llaniladi. Insho jarayonida o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etadi, vaziyatga shaxsiy yondashuvini bildiradi va tasavvurini namoyon qiladi. Bu usul orqali o'quvchining ijodiy tafakkur darajasini aniqlash va baholash nisbatan osonlashadi.

Kreativlik masalasi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi strategik yo'nalishlarida ham alohida e'tirof etilgan. Yosh avlodni har

tomonlama rivojlangan, bilimli va komil shaxs sifatida shakllantirishda o'qituvchining ijodkorligi muhim omil sifatida qaraladi. O'qituvchining kreativ yondashuvi o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Psixologik jihatdan esa ijodkorlik bilim, tafakkur va tasavvur jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi.

Kreativlik ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar keng joriy etilgandagina zamonaviy, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Ijodkorlikning psixologik-pedagogik asoslari shaxsning ichki ruhiy jarayonlari va ta'lim muhitining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Ijodiy faoliyatning shakllanishida, avvalo, xohish va istak muhim o'rin tutadi. Ichki motivatsiya, ya'ni biror faoliyatga bo'lgan qiziqish va intilish ijodkorlikning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Ikkinchi muhim omil – tasavvur qilish qobiliyatidir. Tasavvur insonning mavjud tajribasini qayta ishlash, yangi obrazlar va g'oyalar yaratish imkonini beradi. Uchinchidan, o'z-o'zini kuzatish va refleksiya jarayoni ijodiy faoliyatni ongli ravishda boshqarishga xizmat qiladi. Shaxs o'z fikrini tahlil qilishi, xatolarini anglab yetishi va ularni takomillashtirishga intilishi orqali kreativ salohiyatini rivojlantiradi.

Bilimning shakllanish jarayonida fikr yuritish va tasavvur qilish asosiy o'rin egallaydi. Bu jarayon aqliy mehnat, intuitsiya va dunyoqarash kabi elementlar orqali namoyon bo'ladi. Aqliy mehnat – bu tafakkur jarayonining tizimli va maqsadli amalga oshirilishidir. Intuitsiya esa muammoning yechimini tez va bevosita anglash qobiliyatidir. Dunyoqarash shaxsning voqelikni idrok etish va baholash tizimi bo'lib, u ijodiy fikrlashning yo'nalishini belgilaydi.

Buyuk olim V.A. Slastyonin ijodkorlikning asosiy sifatlarini shaxsning ijodiy motivatsiyasi, qiziquvchanligi, ijodiy qiziqishi va yutuqlarga intilishi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, kreativlik xayoliy qarash, baholay olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, ijodiy faoliyat jarayonida

hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, kreativlik nafaqat individual, balki ijtimoiy xususiyatga ham ega.

Kreativ salohiyatga ega o‘quvchilar boshqalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaydi. Ular vazifa va muammolarga mustaqil yondashadi, o‘ziga xos usulni tanlaydi va natijada shaxsiy fikrga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday o‘quvchilar jamiyatda tezda ko‘zga tashlanadi va yetakchilik fazilatlarini namoyon qiladi. Shu bois boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarning psixologik holatini inobatga olgan holda kreativlikni rivojlantirish muhimdir. Chunki bolaning ruhiy holati, xarakter xususiyatlari va o‘ziga bo‘lgan ishonchi kelajakdagi ijtimoiy mavqeini shakllantiradi. To‘g‘ri tanlangan pedagogik yondashuv natijalari esa yuqori bosqichlarda asta-sekin namoyon bo‘la boshlaydi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro dasturlar, xususan, PISA tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. PISA nafaqat ijodkor o‘quvchilarni aniqlash, balki o‘quvchilarning fikrlash darajasi, o‘z fikrini ifodalash qobiliyati hamda bu jarayonning maktab faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini baholashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ta’lim va pedagogika sohasida samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi kreativ fikrlash ko‘nikmasi haqida xalqaro darajadagi ishonchli ma’lumotlarni taqdim etishdir.

Kreativ fikrlash ko‘nikmasi aynan ta’lim jarayonida shakllanadi. O‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kreativ fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirish aniq va o‘lchab bo‘ladigan natijalarga olib keladi. Shu sababli PISA doirasidagi topshiriqlar maktab fanlari bilan uzviy bog‘liq, amaliy va o‘quvchilarga tanish kontekstda tuziladi. Test va umumiy ma’lumot qismlaridan iborat baholash tizimi o‘quvchining mulohaza yuritish, baholash va tahlil qilish qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

To‘plangan ma’lumotlar o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan boshqa pedagogik yondashuvlar bilan boyitiladi. Ochiqlik, maqsadga yo‘naltirilganlik va ishonchlilik kabi omillar sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda faol ishtirok orqali mustahkamlanadi. Ushbu dastur

doirasida yosh chegarasi mavjud bo'lsa-da, uning ta'limiy ahamiyati katta.

Bundan tashqari, PIRLS dasturi o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini rivojlantirishga xizmat qiladi. PISA esa ularning ta'limiy yutuqlarini baholab, natijalar asosida rag'batlantiradi. Mazkur dasturlarni deyarli barcha fanlarga tatbiq etish mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy fanlarda mantiqiy fikrlashni, matnni tushunishni va voqealarga tanqidiy-tahliliy yondashuvni shakllantirishda PIRLS va PISA dasturlarining o'rni katta.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik metodlar o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'z ustida ishlashga, mantiqiy tahlil qilishga va kreativ yondashuvni shakllantirishga yo'naltiradi. Kreativlikni rivojlantirish ta'limning strategik vazifalaridan biri bo'lib, u shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar egallashi zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir. Zamonaviy jamiyat tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda va oddiy savodxonlik endilikda yetarli ko'nikma hisoblanmaydi. Bugungi davr yangilanayotgan, moslashuvchan va innovatsion fikrlay oladigan kadrlarni talab etadi. Shu bois kreativ fikrlash yosh avlodga doimiy o'zgarishlarga moslashish, yangi vaziyatlarga yangicha yondashish hamda murakkab sharoitlarda samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi o'quvchi kelajakda hozircha mavjud bo'lmagan sohalarda faoliyat yuritishi mumkin. Mehnat bozori doimiy ravishda yangilanib, yangi kasblar va faoliyat yo'nalishlari paydo bo'lib bormoqda. Shunday sharoitda kreativ fikrlash o'quvchilarga yangi muammolarni hal etish, yangi ko'nikmalarni egallash va tobora murakkablashayotgan mahalliy hamda global masalalarga noodatiy yondashuv orqali yechim topish imkonini beradi.

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqat mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etish va rivojlantirish maydoni hisoblanadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha hamda shaxsiy mazmun asosida talqin etishiga

yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini mazmunli va samarali qiladi.

O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida samarali o'zaro aloqalar shakllanadi. Hatto oldindan belgilangan ta'lim maqsadlari doirasida ham ijodiy yondashuv ijobiy natijalarga olib keladi. Shu sababli maktablarda har bir o'quvchining ijodiy salohiyati va shijoatini inobatga oluvchi yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni joriy etish zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga qiziqishi sust bo'lgan o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning o'z fikrini erkin ifoda etishiga va ichki imkoniyatlarini ochishiga yordam beradi.

Shaxsning ruhiy xususiyatlari — aql, idrok, iroda, diqqat va boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishi — uning hayotda o'z o'rnini topishiga, jamiyat ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishiga va komil inson sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Bu jarayon boshlang'ich sinflardanoq maqsadli ravishda yo'lga qo'yilishi zarur. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon bo'lib, faqat ularning uyg'unligi orqali kutilgan natijaga erishish mumkin.

Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning eslab qolish, esda saqlash va esga tushirish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy xotirani shakllantirish o'quvchining tafakkur jarayonini mustahkamlaydi. O'quvchilar xotiraga tayangan holda mantiqiy mashqlarni bajarish orqali bilimga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada dars jarayonining samaradorligi ortadi, o'quvchilar va o'qituvchilarning darsga bo'lgan mas'uliyati oshadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish maktab ta'limining muhim vazifalaridan biridir. U nafaqat o'quvchining akademik muvaffaqiyatini, balki uning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimi ijodkor, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgandagina jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi avlodni voyaga yetkazish mumkin bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. *O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish usullari – kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun qanday metodlar va usullar qo'llaniladi?*
2. *O'qituvchilar qanday qilib kreativ fikrlashni rivojlantirishi mumkin?*
3. *Kreativ fikrlashni rivojlantirishda ishlatiladigan texnologiyalar – qaysi pedagogik yoki axborot texnologiyalari yordam beradi?*
4. *Ijodkorlikning psixologik-pedagogik asoslari – ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi psixologik va pedagogik prinsiplar nimalardan iborat?*
5. *PISA dasturi nima? – uning maqsadi va mohiyati qanday?*
6. *PISA dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish – bu jarayon qanday tashkil qilinadi va qanday usullar bilan amalga oshiriladi?*

7-MAVZU. KREATIV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. KREATIV DARSNING INNOVATSION TUZILISHI

Reja:

1. *Kreativ shaxsni rivojlantirish modeli.*
2. *Maktab o'quvchilarining kreativ tafakkurini uzluksiz*

shakllantirish va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik tizimi.

3. *Kreativ darsning tuzilishi bo'yicha ko'rsatmalar.*

Tayanch tushunchalar: *kreativ topshiriq, muammoli topshiriq, kognitiv faollik, interfaol topshiriq, innovatsion dars, dars modeli, integratsiyalashgan dars, innovatsion texnologiyalar*

Jahonda globallashtirish va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy jamiyat innovatsion taraqqiyot yo'lidan ildam harakatlanar ekan, yosh avlodni tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashtirish, ularda zamon talablariga javob bera oladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining muhim kasbiy vazifasiga aylanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim markazlari bilan hamkorlikni kengaytirishi, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni joriy etishi lozim. Bu esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish va talabalarning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Talabalar hamda ilmiy-pedagogik kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar va interaktiv ta'lim vositalari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini

shakllantirishga imkon beradi. Bunday muhit talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishga va yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi.

Prezidentimizning “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida islohotlarni zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida amalga oshirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Bu esa ta'lim tizimining ham innovatsion yondashuvlarga asoslanishini talab etadi. Shuningdek, 2019-yil 24-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan uchrashuvda iste’dodli yoshlarni aniqlash va ularni maqsadli qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan. Mazkur fikrlar ta'lim ustuvorligi va mazmunining yangilanishini taqozo etadi.

Shaxs o‘z qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, diqqati va xarakter xususiyatlarini anglab, ularni to‘g‘ri yo‘naltira olgan taqdirdagina jamiyat uchun foydali bo‘la oladi. Shu sababli pedagogik-psixologik bilimlar nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsning ichki salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.


Oliy o‘quv yurti talabalarining kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi bugungi kunda keng ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilmoqda. Bu muammoni hal etishning asosiy shartlaridan biri talabalar kreativligining nazariy asoslarini aniqlash va uni amaliyotga joriy etishdir. Ilmiy izlanishlarda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirish, kreativ sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxs faolligi hamda tanqidiy va kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari yoritilgan.

Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faollashtirish, kreativ mahsulotlar yaratish va erkin ta'lim muhitini tashkil etish masalalari ham ilmiy asoslangan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim modeli talabalarning mustaqil izlanishi, o‘z fikrini asoslab bera olishi va ijodiy faoliyat tajribasini egallashiga xizmat qiladi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish mazmuni deganda, ularning egallashi lozim bo'lgan aniq belgilangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmui tushuniladi. Bu jarayon quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: olam va inson haqidagi tizimli bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; shuningdek, atrof-muhitga nisbatan emotsional-faoliyat tajribasi.

Demak, talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuv orqali bo'lajak mutaxassislar nafaqat kasbiy jihatdan yetuk, balki ijodkor, tashabbuskor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarining innovatsion texnologiyalar asosida
takomillashib borish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:



Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish hozirgi kundagi muhim masalalardan biridir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati ko'p hollarda talabalarning ehtiyoj va qobiliyatlarini rivojlantirishga emas, balki o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmoqda. Bunday reproduktiv yondashuv asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar talabaning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyat bermaydi. Natijada talabalarda ortiqcha axborotlar jamg'arilishi, ta'lim samaradorligining pastligi va

uning real hayotiy ehtiyojlarga to‘liq mos kelmasligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammoli vaziyatdan chiqishning samarali yo‘llaridan biri – oliy ta‘lim jarayoniga kompetent yondashuvni joriy etishdir. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish aynan kompetent yondashuv bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi kunda pedagogik hamjamiyatda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro farqi hamda universal tayanch birlik sifatida qaysi biri ustuvorligi yuzasidan ilmiy munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv talabalardan alohida bilim va ko‘nikmalarni emas, balki ularni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirishni talab etadi. Shu bilan bog‘liq ravishda o‘qitish metodlarini tanlash va qo‘llash tizimi ham o‘zgaradi. Endilikda ta‘lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash, real vaziyatlarda muammoni hal eta olish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

An‘anaviy didaktik triada – “Bilim – Ko‘nikma – Malaka” bugungi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Shu sababli uni quyidagi kengaytirilgan tizim asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

“Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik.”

Bu kengaytirilgan model oliy ta‘limni modernizatsiya qilishning nazariy asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda pedagogik kreativlik alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kreativlik – bu pedagogning an‘anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta‘lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi yangi g‘oyalarni yaratish hamda mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal etishga tayyorligini ifodalovchi qobiliyatidir.

Pedagogik kreativlik, avvalo, ikki muhim vazifani kafolatlashi lozim. Birinchisi – talabalarning diqqatini jalb qilish. Ya‘ni o‘qituvchi o‘zlashtirish

darajasi past yoki zerikarli deb baholanayotgan fanlarni talabalar uchun qiziqarli shaklga keltira olishi, ularni chuqur o'zlashtirishga yo'naltira olishi kerak. Ikkinchisi – kreativlikni rag'batlantirish. Bunda o'qituvchi talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni qo'llashi, auditoriyada bunday muhitni yaratishi zarur.

Kreativlik shaxsning yaratuvchanlik va ijodkorlik sifatleri bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. U muammolarga yuqori sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya kabi sifatleri o'z ichiga oladi. Shaxs kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayonida mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va mavjud tajribani qayta ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Tadqiqotchi N. Fayzullaeva ta'kidlashicha, pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun talabalar pedagogikaga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishi zarur. Bunda pedagogikaning asosiy g'oyalari va konsepsiyalarini bilish, pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini anglash, nazariy kategoriyalar va tushunchalarni tushunish hamda ta'lim va tarbiyaning umumiy metodologiyasiga oid amaliy bilimlarni egallash muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda kreativlikni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shartlar muhimdir: savol berishga rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; mustaqillik va javobgarlikni kuchaytirish; mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun imkoniyat yaratish; talabalar qiziqishlariga e'tibor qaratish. Ushbu omillar talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va kreativ tafakkurini rivojlantiradi.

Kreativlik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar auditoriya muhitining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi auditoriyada erkin, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi zarur. Bunday muhitda talabalar o'z fikr va g'oyalarini erkin bayon qila oladi, xato qilishdan qo'rqmaydi va ijodiy tavakkal qilishga jur'at topadi. Chunki kreativlik ma'lum darajada tavakkalchilikni, yangilikni sinab ko'rishni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimida reproduktiv yondashuvdan kompetent va kreativ

yondashuvga o'tish zamon talabi hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini ta'minlash mumkin. Bu esa ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalar o'z kreativ g'oya va fikrlarini turli shakllarda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur va bu jarayon ta'lim tizimida qadrlanishi lozim. Kreativlikning namoyon bo'lishi faqat og'zaki bayon bilan cheklanmaydi; u yozma, tasviriy, musiqiy, harakatli yoki boshqa noverbal shakllarda ham ifodalanishi mumkin. Talabalarning fikrlash jarayonini faollashtirish uchun ular mavjud qoidalar va standartlar doirasidan tashqariga chiqib, erkin savollar berishlari, muammolarga noodatiy yondashishlari muhimdir. Bunday erkinlik ijodiy tafakkur rivojining asosiy shartlaridan biridir.

O'qituvchi talabalardagi kreativlikni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. U noodatiy g'oyalarni ilgari surishga undash, yangi fikrlarni qadrlash va ularni verbal hamda noverbal rag'batlantirish orqali ijodiy muhit yaratadi. Talabalarning ilgari surayotgan kreativ g'oyalariga nisbatan o'qituvchining to'g'ri va ijobiy munosabati ularning imkoniyatlarini anglashiga, o'z fikriga ishonch hosil qilishiga hamda mumkin va mumkin bo'lmagan chegaralarni ongli ravishda tushunishiga yordam beradi. Bu jarayon o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatning muhim tarkibiy qismidir.

Shu bilan birga, pedagoglarda kreativ sifat va malakalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud. Bunday omillarni anglash va ularni bartaraf etish pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Kreativlik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga o'zini tavakkaldan olib qochish, fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollik, fantaziya va tasavvurni yetarlicha qadrlamaslik, boshqalarga haddan tashqari tobelik hamda har qanday vaziyatda faqat muvaffaqiyatni o'ylash kiradi. Ayniqsa, xato qilishdan qo'rqish va doimiy ravishda ideal natijani kutish ijodiy tajriba va izlanish jarayonini cheklaydi.

Kreativ muhitni shakllantirishda yangilik muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi talabalarning diqqatini jalb etish uchun dars jarayoniga yangicha

elementlarni kiritishi mumkin. Qiziquvchanlik va hayrat uygʻotuvchi maʼlumotlar talabalarda bilim olishga boʻlgan intilishni kuchaytiradi. Miya faoliyati boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yangilik miyaning faollashuviga sabab boʻladi. Oʻqituvchi yangi maʼlumot, yangi manba yoki yangi metodni qoʻllaganida talabalar diqqati oshadi va oʻquv jarayoniga faolroq jalb etiladi.

Masalan, dars davomida adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs obraziga kirish, tarixiy yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, auditoriya jihozlarining joylashuvini oʻzgartirish, interaktiv oʻyinlar tashkil etish yoki dars shaklini yangilash kabi usullar kreativ muhitni yaratishga xizmat qiladi. Bu usullar nafaqat oʻrta maktab oʻquvchilari, balki oliy taʼlim muassasalari talabalari uchun ham samarali hisoblanadi.

Kreativlikni rivojlantirish uchun erkin fikrlash muhiti, ijobiy ragʻbat va yangilikka ochiq pedagogik yondashuv zarur. Oʻqituvchi tomonidan yaratilgan qoʻllab-quvvatlovchi muhit talabalarni oʻz fikrini dadil bayon etishga, tavakkal qilishga va ijodiy izlanishga undaydi. Ana shunday muhitda kreativ tafakkur shakllanadi va talabalarning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratiladi.

Kreativ muhitda oʻqituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkoniyatini berishi muhim pedagogik tamoyillardan biridir. Tanlov jarayoni kreativlikni shakllantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi, chunki u talabalarda mustaqillik, masʼuliyat va oʻz faoliyatini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Tanlov imkoniyati talabalarga oʻqish jarayonini nazorat qilish, oʻz qiziqish va ehtiyojlariga mos yoʻnalishni tanlash, shuningdek, shaxsiy pozitsiyasini ifoda etish imkonini beradi. Natijada talabaning ichki motivatsiyasi kuchayadi va u oʻquv jarayonida faol subyektga aylanadi.

Tanlov huquqi oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi munosabatni ham ijobiy tomonga oʻzgartiradi. Bu jarayon ikki tomonlama hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlik muhitini shakllantiradi. Tanlov imkoniyati oʻqituvchining ham, talabaning ham individualligini namoyon etishiga zamin yaratadi. Chunki har bir shaxs oʻziga xos fikrlash uslubi, qiziqishi va tajribasiga ega.

Ba'zi hollarda tanlov bir tomonlama bo'lishi mumkin, ya'ni talaba mustaqil ravishda qaror qabul qiladi va bajarilgan vazifa natijasini ikki yoki undan ortiq shaklda taqdim etadi. Masalan, bir xil mazmundagi topshiriq yozma insho, prezentatsiya, videorolik yoki ijodiy loyiha ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Bunday yondashuv talabada ijodiy tafakkur, muqobil variantlarni ko'ra bilish va o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkonini kengaytiradi.

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotida shaxsning kreativ sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan turli metod va strategiyalar keng qo'llaniladi. Ushbu metodlarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari ustida chuqur fikrlashga, muammoni tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Muammoli vaziyatlar, loyihaviy ta'lim, bahs-munozara, "aqliy hujum", keys-stadi va reflektiv topshiriqlar shular jumlasidandir.

Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan metod va strategiyalarni qo'llash uchun ma'lum tayyorgarlik zarur. Kreativ sifatleri past darajada rivojlangan o'quvchi yoki talaba bilan ishlash jarayonida bu metodlarni bevosita va to'liq qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bunday holatda avvalo o'quvchining motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, oddiydan murakkabga qarab harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Demak, kreativ muhitni shakllantirishda tanlov imkoniyati, erkinlik va mas'uliyat uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi tomonidan yaratilgan bunday pedagogik sharoit talabalarning shaxsiy salohiyatini ochib berishga, ularni faol va ijodkor subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tanlov asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa zamonaviy kompetent yondashuvning muhim ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativ shaxslar odatda **ikki turga bo'linadi**:

Katta kreativlar ("katta K") – ular faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilari bo'lib, doimiy ravishda o'zgarishlar yaratishga intiladi.

Kichik kreativlar ("kichik K") – ular kreativ qobiliyatlarini asosan

kundalik hayotda ma'lum foyda olish uchun ishlatadi.

Ko'pchilik talabalar o'zlarini kreativ shaxs deb hisoblamaydi. Ularning fikricha, kreativlik – bu faqat iqtidorli shaxslarga xos bo'lgan, ularga erishish qiyin bo'lgan narsa. Ba'zi talabalar kreativlik faqat o'z sohasining yetakchilari, ya'ni “katta K” (Big-C creativity) toifasiga kiruvchi shaxslar yoki san'at yo'nalishida tahsil olayotgan hamda faoliyat yuritayotgan insonlargagina xos, degan fikrga ega bo'ladilar. Ularning nazarida kreativlik buyuk ixtirochilar, mashhur rassomlar yoki ilm-fan arboblari xos noyob sifat sifatida talqin qilinadi. Bunday qarash esa ko'plab talabalarni o'z imkoniyatlarini past baholashga olib keladi.

Aslida esa kreativ shaxs bo'lish uchun albatta o'z sohasining yetakchisi bo'lish shart emas. Talabalar ushbu haqiqatni anglab yetganlarida, o'zlarida mavjud kreativ sifatlarni rivojlantirishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Shundagina ular o'zlarini past baholashdan voz kechib, yangi va ilg'or g'oyalar bilan o'z salohiyatlarini namoyon etishga intiladilar. Natijada ta'lim jarayonidagi faollik ortadi, o'qishga bo'lgan qiziqish kuchayadi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Talabalar o'z imkoniyatlariga ishonch hosil qilgan sari, kreativ sifatlarni namoyon etishda mavjud natijalardan ham yuqori ko'rsatkichlarga erishishga harakat qiladilar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar qancha ko'p kreativlik namoyon etsalar, shuncha ko'p tashabbuskorlik va faollikka erishadilar. Bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda turli axborot-kommunikatsiya vositalari samarali xizmat qiladi. Zamonaviy pedagog kreativ yondashuv asosida tayyorlangan elektron va multimedia mahsulotlardan foydalanib, ta'lim jarayonini boyitishi mumkin.

Multimedia — grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya hamda animatsion tasvirlar kabi turli ko'rinishdagi axborotlarni birlashtiruvchi kompyuter texnologiyalari majmuidir. Multimedia vositalari o'quv materialini ko'rgazmali, tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish imkonini beradi.

Elektron albom — rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqa grafik tasvirlar

hamda ularning izohlarini o'z ichiga olgan elektron shakldagi to'plamdir. Bu vosita ayniqsa tasviriy materiallar asosida o'qitiladigan fanlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Elektron atlas — muayyan o'quv moduli yoki fan bo'yicha grafik tasvirlar asosida tuzilgan elektron manba bo'lib, o'quv maqsadlariga muvofiq ravishda foydalaniladi. U murakkab jarayon va obyektlarni vizual tarzda anglashni osonlashtiradi.

Raqamli videolavhalar — o'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy 3D o'lchamdagi o'quv manbalardir. Ular abstrakt tushunchalarni aniq va jonli tasvir orqali tushuntirish imkonini beradi.

Virtual stendlar — real obyekt, jarayon yoki hodisalarning elektron modeli bo'lib, matn, rasm, sxema, jadval va diagrammalar asosida yaratiladi. Ular virtual muhitda tajriba o'tkazish, jarayonlarni modellashtirish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Imitatsion virtual trenajyorlar esa elektron o'quv-mashqlantiruvchi qurilmalar bo'lib, real mehnat faoliyati sharoitini modellashtiradi. Masalan, mexanizmlarni boshqarish, murakkab texnik uskunalar bilan ishlash yoki maxsus kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida qo'llaniladi. Bunday trenajyorlar orqali ko'nikmalar malakaga aylantiriladi va takomillashtiriladi.

Axborot texnologiyalarining keng imkoniyatlari hamda pedagoglarning kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvi natijasida yaratilgan multimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, jumladan, videoanimatsiyalar ta'lim jarayonida samarali qo'llanilmoqda. Ushbu vositalar talabalarning tasavvurini boyitadi, qiziqishini oshiradi va kreativ fikrlashini faollashtiradi.

Shunday qilib, kreativlikni rivojlantirish faqat iqtidorli yoki yetakchi shaxslargagina xos jarayon emas, balki har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlari va to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muhit orqali shakllanadigan sifatdir. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonni samarali tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Multimedia mahsulotlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida yaratilgan bo'lib, ular audio, video, matn, grafika hamda animatsiya effektlari yordamida o'quv materialini tinglovchilarga yetkazib berishni mujassamlashtiradi. Bunday mahsulotlar o'quv jarayonini ko'rgazmali, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Audio va videovizual materiallar o'quv axborotlarini kompyuter texnologiyalari yordamida ovozli hamda vizual shaklda qabul qilishni ta'minlaydi. Bu vositalar orqali talaba ma'lumotni nafaqat o'qish, balki eshitish va ko'rish orqali ham qabul qiladi. Natijada o'zlashtirish darajasi oshadi, eslab qolish jarayoni mustahkamlanadi.

Videoanimatsiyalar chizilgan yoki kichik hajmli obrazlarni (hajmiy, qo'g'irchoq yoki o'yinchoqli obyektlar) harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olish asosida yaratilgan elektron tasvirlardir. Animatsiyalar murakkab jarayon va hodisalarni dinamik ko'rinishda tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa, abstrakt tushunchalarni izohlashda ularning ahamiyati katta.

Prezentatsiya (lotincha "praesentatio" — taqdim etish) muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan o'quv, ilmiy yoki amaliy xarakterdagi materiallarni texnik vositalar yordamida taqdim etish shaklidir. Prezentatsiyalar oddiy qog'oz materiallari yoki axborot-kommunikatsiya vositalari — kompyuter, proyektor, protsessor va boshqa qurilmalar yordamida namoyish etiladi. Ular ma'lumotni tizimli, mantiqiy va vizual tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Mohiyatiga ko'ra, axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan va ta'limiy maqsadlarda foydalaniladigan ijod mahsulotlari talabaning bilish faoliyatini faollashtirishi zarur. Bunday vositalar o'quv materialini tushunish va o'zlashtirishni kuchaytirishi, fanlararo aloqani chuqurlashtirishi hamda talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi lozim. Elektron shakldagi ijod mahsulotlari turli jarayon va hodisalarni

anglashni osonlashtirishi, tajribalarni bajarish usullari bilan tanishtirishi va laboratoriya jihozlarida ishlashni yengillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi bosqichda o'qituvchilardan o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha chuqur bilim va malakaga ega bo'lish talab etiladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan har qanday texnik vosita, jumladan kompyuter texnologiyalari, maqsadga muvofiq va ilmiy asoslangan holda qo'llanilishi zarur.

Ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan har qanday texnologiya uch asosiy belgi bilan tavsiflanadi: birinchidan, jarayonning o'zaro bog'liq bosqichlarga ajratilishi; ikkinchidan, maqsadga erishishga yo'naltirilgan ish-amallarning muvofiqlashtirilgan holda bosqichma-bosqich bajarilishi; uchinchidan esa, natijaga erishishning muqarrar sharti bo'lgan ish-amallarning qat'iy ta'minlanishi. Aynan shu talablar ta'limni axborotlashtirish konsepsiyasi doirasida pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqishda asos sifatida olinadi.

Shunday qilib, multimedia va axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagog esa ushbu texnologiyalarni ijodkorona qo'llay olishi orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Hozirgi vaqtda ta'limni bosqichma-bosqich axborotlashtirish asosida yagona axborot muhitini yaratish dasturi joriy etilmoqda. Bugungi kunda o'qituvchilar ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini o'quv faoliyatining quyidagi turlarida qo'llamoqda:

- yangi nazariy materiallarni o'rganish va bayon etishda;
- komputer dasturlaridan foydalanib, virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishda;
- o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda;
- talabalarning mustaqil ishlarida;
- ochiq darslar, telekonferensiyalar,
- audiokonferensiyalar, namunaviy mashg'ulotlarni o'tkazishda.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ma'lum didaktik

imkoniyatlarga ega. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonini jadallashtirishga, shuningdek ta'lim oluvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga, bilish faoliyatini faollashtirishga, bilimlarni mustaqil egallashga yo'naltirilgan metodikalarni yaratishga zamin tug'diradi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ham foydalanuvchilar o'rtasida interfaol muloqot o'rnatish(bu interfaol muloqot shu bilan xarakterliki, bunda foydalanuvchining har bir so'roviga sistema javob qaytaradi va aksincha, sistema "replikasi" foydalanuvchidan ma'lum ishni amalga oshirishni talab etadi);

- o'rganilayotgan ob'yekt, jarayon haqidagi o'quv axborotlarini komputerda aks ettirish(ekranda yaqqol ko'rsatish: o'rganilayotgan ob'yektni, uning tarkibiy qismlarini yoki ularning modellarini; jarayonni yoki uning modelini, shu jumladan, uning real olamda bevosita ko'rinmaydigan qismi modelini; o'rganilayotgan jarayonning tadqiq etilayotgan qonuniyatini grafik talqin etish);

- o'rganilayotgan yoki tadqiq etilayotgan obyektlar, ularning o'zaro munosabatlari, real, shuningdek virtual sharoitda yuz beradigan hodisalar, jarayonlarni komputer yordamida modellashtirish;

- taqdim etilayotgan o'quv materialini tasvirlar yordamida tushuntirish;
- gipermedia asosida axborotlarni taqdim etish;
- katta hajmdagi axborotlarni arxivlash va saqlash;
- hisoblash, axborot-izlash faoliyati jarayonini avtomatlashtirish;
- tajriba-sinovlarni yoki ularning elementlarini o'quv jarayonida ko'p marta takrorlash, tajriba natijalarini qayta ishlash;

- o'quv faoliyati va bilimlarni o'zlashtirish natijalarini nazorat qilishning axborot-metodik ta'minoti jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish.

Oliy ta'lim muassasalarini va o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan ta'minlash hamda ularda kasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiyani shakllantirish – pedagog mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdagi muhim

vazifalardandir.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini bosqichma-bosqich axborotlashtirish asosida yagona axborot muhitini yaratish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, o'quv-tarbiya faoliyatini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy sharoitda o'qituvchilar axborot texnologiyalaridan o'quv faoliyatining turli bosqichlarida keng foydalanmoqdalar.

Axborot texnologiyalari yangi nazariy materiallarni o'rganish va bayon etishda, kompyuter dasturlari yordamida virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda, o'tilgan mavzularni mustahkamlash, nazorat qilish va baholash jarayonida, talabalarning mustaqil ishlarini yo'lga qo'yishda, shuningdek ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar va namunaviy mashg'ulotlarni o'tkazishda samarali qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining ko'lamini kengaytirib, uni interaktiv va dinamik tusga kiritadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Ularning imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchilarning aqliy salohiyatini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirish hamda bilimlarni mustaqil egallashga yo'naltirilgan metodikalarni yaratishga zamin yaratadi.

AKTning asosiy didaktik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, foydalanuvchilar o'rtasida interfaol muloqotni ta'minlaydi. Interfaollik shundan iboratki, foydalanuvchining har bir so'roviga tizim javob qaytaradi va aksincha, tizimning javobi foydalanuvchidan muayyan harakatni amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayon ta'lim oluvchini faol ishtirokchiga aylantiradi.

Ikkinchidan, o'rganilayotgan obyekt va jarayonlar haqidagi o'quv axborotlarini kompyuter ekranida yaqqol aks ettirish imkoniyati mavjud. Obyektning tarkibiy qismlari, jarayonlarning modeli, real hayotda bevosita kuzatib bo'lmaydigan bosqichlari ham grafik, sxematik yoki animatsion shaklda namoyish etilishi mumkin. Bu esa murakkab tushunchalarni oson anglashga yordam beradi.

Uchinchidan, kompyuter yordamida real va virtual sharoitlarda yuz

beradigan hodisa va jarayonlarni modellashtirish imkoniyati mavjud. Modellashtirish o'quvchiga nazariy bilimlarni amaliy tasavvur bilan bog'lash imkonini beradi. Taqdim etilayotgan o'quv materialini tasvirlar, grafiklar va diagrammalar yordamida tushuntirish esa mavzuning aniqligi va ravshanligini ta'minlaydi.

Shuningdek, gipermedia asosida axborotlarni taqdim etish, katta hajmdagi ma'lumotlarni arxivlash va saqlash, hisoblash hamda axborot izlash faoliyatini avtomatlashtirish, tajriba-sinovlarni bir necha bor takrorlash va natijalarni qayta ishlash kabi imkoniyatlar ham AKTning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quv faoliyati va bilimlarni o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish jarayonini avtomatlashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarini va o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish hamda ularda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirish – pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona va maqsadli foydalanish esa ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Zero, o'qituvchining kreativ faoliyat yuritishi uchun u nafaqat o'z fan sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, balki jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlardan ham xabardor bo'lishi zarur. Zamonaviy pedagog innovatsion g'oyalarni anglay olishi, ularni tanqidiy baholashi va o'z kasbiy faoliyatida maqsadga muvofiq qo'llay bilishi lozim. Ana shundagina kreativlik real pedagogik natijaga aylanishi mumkin.

“Innovatsiya” atamasi ingliz tilidagi “innovation” so'zidan olingan bo'lib, “yangilik”, “yangilik kiritish” degan ma'nolarni anglatadi. U muayyan ijtimoiy birlik — tashkilot, jamoa, jamiyat yoki tizimga yangi va nisbatan barqaror unsurlarni kiritish hamda natijada maqsadga muvofiq o'zgarishlarni yuzaga keltirish jarayonidir. “Innovatsiya” tushunchasi dastlab XIX asrda

madaniyatshunoslik sohasida qo'llanilib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy etish ma'nosini bildirgan. XX asrning 30-yillarida esa AQShda "firma innovatsion siyosati", "innovatsion jarayon" kabi atamalar shakllandi va iqtisodiy hamda boshqaruv sohasida keng qo'llanila boshlandi.

Innovatsiyalar odatda ikki turga bo'linadi. Birinchisi — stixiyali innovatsiyalar bo'lib, ular ijtimoiy ehtiyoj natijasida o'z-o'zidan yuzaga keladi. Bunday innovatsiyalarni yaratishda oldindan ishlab chiqilgan aniq reja, metod yoki texnologiya mavjud bo'lmaydi.

Ikkinchisi — ongli innovatsiyalar bo'lib, ular ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan jarayon mahsuli hisoblanadi. Pedagogika sohasida aynan ongli innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Innovatsion pedagogika" tushunchasi G'arb mamlakatlarida XX asrning 50-yillari oxirlarida paydo bo'lgan bo'lsa, mamlakatimizda so'nggi o'n yilliklarda faol qo'llanila boshlandi. Jahon pedagogik nashrlari va ilmiy jurnallarda innovatsion yondashuvlarga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilina boshladi. YUNESKO huzurida Ta'limni rivojlantirish bo'yicha Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazining tashkil etilishi bu jarayonning xalqaro miqyosda rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu markaz turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni keng jamoatchilikka yetkazib borgan.

Mazkur jarayonlar bilan bog'liq holda "innovatsion jarayon" tushunchasi shakllandi. Innovatsion jarayon — bu o'quv-tarbiya faoliyatini zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlari asosida, xalqaro standartlar darajasida tashkil etishga xizmat qiluvchi tizimli harakatlar majmui hisoblanadi. U muayyan tuzilma va qonuniyatlarga ega bo'lib, ta'lim tizimining yangilanishini ta'minlaydi.

Innovatsion jarayonlarga nisbatan ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko'ra, innovatsiya hayotga joriy etilgan yangi g'oya sifatida talqin etiladi. Ikkinchi qarash esa alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, raqobati va natijada birining o'rnini boshqasi egallashi jarayonini nazarda tutadi. Ya'ni innovatsiya dinamik va uzluksiz yangilanish jarayonidir.

Innovatsion jarayon bir necha bosqichlardan iborat. Birinchi bosqich — yangi g'oyaning paydo bo'lishi bo'lib, u fundamental yoki amaliy ilmiy tadqiqotlar natijasida yuzaga keladi. Ikkinchi bosqich — kashf etish, ya'ni yangilikning moddiy yoki ma'naviy mahsulot sifatida namuna ko'rinishida yaratilishi. Uchinchi bosqich — yaratilgan yangilikni takomillashtirish va qo'shimcha ishlab chiqish bo'lib, bu bosqich samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. To'rtinchi bosqich — yangilikning keng tarqalishi va turli sohalarga diffuziyanishi, ya'ni ommalashuvi. Beshinchi bosqich esa yangilikning muayyan sohada hukmronlik qilishi bilan tavsiflanadi.

Vaqt o'tishi bilan har qanday yangilik o'z yangilik xususiyatini yo'qotadi va yangi innovatsiya bilan almashinadi. Bu jarayon innovatsion rivojlanishning uzluksizligini ta'minlaydi. Shunday qilib, kreativlik va innovatsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi. Innovatsion yondashuv asosida faoliyat yuritgan pedagoggina talabalarda kreativ kompetentlikni samarali shakllantira oladi.

Yangilikning ikki asosiy turi mavjud. Birinchi tur — mutlaqo yangi yaratilgan yangilik bo'lib, u ixtiro darajasidagi kashfiyotga tenglashtiriladi. Bunday yangilik ilgari mavjud bo'lmagan haqiqatni ochib berish yoki amaliyotga joriy etish bilan tavsiflanadi. Ikkinchi tur esa avval mavjud bo'lgan nazariya yoki amaliy tajribani takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida yangilash va moslashtirishdan iboratdir. Ta'lim sohasida ko'proq ikkinchi turdagi innovatsiyalar uchraydi, chunki pedagogik jarayon doimiy ravishda rivojlanib, zamon talablari asosida boyitilib boriladi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonning to'rtta asosiy qonuni qayd etiladi. Birinchisi — pedagogik innovatsiya muhitining nazorat qilinmasligi qonuni bo'lib, unga ko'ra innovatsiya doimiy va o'zgarmas sharoitda emas, balki pedagogik jarayon hamda ongning yangilikni qabul qilishi va baholashi asosida yuzaga chiqadi. Ikkinchisi — nihoyatga yetkazish qonuni bo'lib, innovatsiya hayotiy tarzda, erta yoki kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshishini anglatadi. Uchinchi qonun — komillashtirish qonuni, ya'ni pedagogik innovatsiya

shakllanib, amaliy faoliyatda o'z tendensiyasini namoyon etadi. To'rtinchi qonun — davriylik va qaytish qonuni bo'lib, innovatsiya yangi sharoitlarda qayta tiklanishi va yangicha ko'rinishda namoyon bo'lishini bildiradi.

Innovatsion pedagogik jarayonlarni amalga oshirishda bir qator metodologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatshunoslik yondashuvi bilish jarayonida inson omilining ustuvorligini ta'kidlaydi. Shaxsiy-faoliyat yondashuvi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Dialogik yondashuv ko'p tomonlama muloqot orqali kasbiy tayyorgarlikni shaxsga yo'naltirishga xizmat qiladi. Individual-ijodiy yondashuv esa o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan kreativ faoliyatni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Innovatsion pedagogik jarayonlarning asosiy belgilari sifatida o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarining rivojlanganligi, ularning bilish faoliyatining faolligi hamda ta'lim jarayonidagi tashabbuskorlik darajasining ortishi ko'rsatiladi.

Bunday jarayonda o'quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish maqsadida maxsus metodik dasturlar ishlab chiqiladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: ijodiy fikrlash va pedagogik masalalarni hal qilish bo'yicha psixologik-pedagogik tahlillar; innovatsion faoliyatni amalga oshirishning texnologik va tuzilmaviy asoslari; yangilikni qabul qilishdagi psixologik to'siqlarni bartaraf etish; nizolarsiz muloqot treninglari; ijodiy masalalarni ochish, "Aqliy hujum", innovatsion o'yinlar va boshqa interaktiv metodlar; shuningdek, o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini baholashda uning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari muhim mezon hisoblanadi. Jumladan, ijodiy yo'nalganlik, pedagogik tadqiqot metodlarini bilish, ijodiy faoliyatni mustaqil olib borish, tahlil va umumlashtirish qobiliyati, hamkorlik va o'zaro yordamga tayyorlik, ko'p sonli yechimlarni amaliy qo'llash, mustaqil fikrlash, tasavvur va

ijodiy hayol, tavakkalchilik, tanqidiy fikrlash hamda o'z faoliyatini tahlil qila olish kabi sifatlar pedagogning kreativligini belgilaydi.

Bu jihatlar o'qituvchining kreativligi va innovatsion munosabati rivojlanayotgan pedagogik muhit ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi. Kreativlik — mavjud bilim chegarasidan chiqish, dolzarb muammoni shaxsiy fikr va yondashuv asosida qo'yish va hal etish qobiliyatidir. O'qituvchi faoliyat yuritadigan muhit yuqori darajadagi noaniqlik va ko'p variantlilikka ega bo'lishi lozim. Noaniqlik tayyor yo'nalishlarni qabul qilishni emas, balki mustaqil izlanishni rag'batlantiradi; ko'p variantlilik esa muqobil yechimlarni topish imkonini beradi.

Olima R.A. Mavlanovanning tadqiqotlarida talaba-yoshlar kreativligini rivojlantirishga qaratilgan refleksiv-innovatsion amaliyot dasturi taklif etilgan. Mazkur dastur ishtirokchilarni tanishtirish va emotsional-refleksiv ochiqlik muhitini yaratishdan boshlanadi. Keyingi bosqichlarda ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar, hikoya yaratish va uni pedagogik vaziyatlarga tatbiq etish, qahramonlar xarakterini tahlil qilish, maktab muammolarini aniqlash va modellashtirish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Dastur doirasida “Assotsiativ davra”, “Pedagogik konsilium”, “Ijodiy tortishuvlar”, “Ochiq darslar”, “Praktikumlar” kabi mashqlar qo'llanilib, talabalar o'z refleksiv fikrlashini baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon pedagogik innovatsion faoliyatning tarkibiy qismlarini modellashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qituvchining kreativligi va innovatsion faoliyati zamonaviy ta'lim tizimining muhim omili hisoblanadi. Innovatsion muhit va kreativ yondashuv uyg'unlashgandagina pedagogik jarayon samaradorligi oshadi hamda bo'lajak mutaxassislarning kreativ kompetentligini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Nazorat savollari:

1. *Ma'ruza matnining vizual xususiyati – matnni vizual jihatdan tashkil etishning ma'ruza samaradorligidagi ahamiyati qanday?*
2. *O'quv topshiriqlari turlari – ularning asosiy turlari qaysilar?*
3. *O'quv mashg'ulotlari uchun topshiriqlarni shakllantirish –*

nimalarga e'tibor qaratish zarur?

4. *O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash – bu jarayonning didaktik ahamiyati nima?*
5. *Kreativ yondashuv asosida nazorat va sinov topshiriqlarini tayyorlash – qanday talablar inobatga olinadi?*
6. *Talabalarning o'quv faolligini oshirish – keys va darajali testlar to'plamini shakllantirishning ahamiyati qanday?*

8- MAVZU. PEDAGOGIK QOBILIYATNI

SHAKLLANTIRISHDA KREATIV

YONDOSHUV

Reja:

1. Qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi.
2. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda kreativ funksiyalari.
3. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, qobiliyat, pedagogik qobiliyat, ijodiylik, ijodiy faoliyat, ijodiy tasavvur

Ma'lumki, pedagogning kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lishi, ijodiy tafakkurni rivojlantira olishi hamda kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarni yetarli darajada o'zlashtirishi zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biridir. Ijodkor shaxs o'zaro uyg'un holda amalga oshirilgan ijodiy faoliyat va yaratilgan mahsulotlar orqali rivojlanadi. Bu jarayonning tezligi va qamrovi biologik hamda ijtimoiy omillar, shaxsning faollik darajasi, kreativ sifatlari, shuningdek mavjud shart-sharoitlar va hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarga bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi kasbiy kompetentligining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida talabalar va o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Bronson va Merriyman (2010), Ken Robinson (2007), Fisher va Treffinger (2008) hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ochib bergan. Ularning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida erkin fikrlash muhiti, muammoli vaziyatlar, mustaqil izlanish va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga doir ko'plab adabiyotlar chop etilmoqda. Ta'lim departamentlari tomonidan tayyorlangan videolavhalar asosida noan'anaviy darslar tashkil etilmoqda, interaktiv metodlar

keng joriy qilinmoqda. Biroq salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganiga qaramay, ko'plab o'qituvchilar hali ham o'zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday samarali shakllantirish mumkinligi borasida yetarli tajribaga ega emaslar.

Amaliy harakatlar talabalarda muayyan darajada yutuqqa erishish, oldinga intilish ehtiyojini shakllantiradi va ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ammo o'quv yilining yakuniga kelib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar har doim ham kuzatilmayapti. Ko'plab talabalar ta'limga bo'lgan qiziqishini yo'qotmoqda, natijada o'qituvchilarning ham kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi susaymoqda.

Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar tomonidan ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi past bo'lgan talabalar hamda ularni o'qitishga qiziqmayotgan pedagoglar faoliyatini o'zgartirish yuzasidan turli chora-tadbirlar belgilanayotgan bo'lsa-da, vaziyat sezilarli darajada o'zgarayotgani yo'q. Buning sababi nimada?

Ehtimol, darslarning haddan tashqari qat'iy rejalashtirilganligi, ijodiy erkinlik uchun yetarli imkoniyatning mavjud emasligi talabalarda qiziqish uyg'otmayotgandir. Balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi, standartlashgan yondashuvning ustuvorligi talabalar uchun yetarli stimul bermayotgandir. Ta'lim jarayonining bir xil ssenariy asosida tashkil etilishi, muammoli vaziyatlarning yetishmasligi, tanlov imkoniyatining cheklanganligi talabaning ichki motivatsiyasini pasaytirishi mumkin.

Shunday ekan, zamonaviy ta'lim tizimida kreativ yondashuvni faqat metod darajasida emas, balki ta'lim falsafasi darajasida joriy etish zarur. Pedagog ijodiy fikrlashni o'zi namoyon etgan taqdirdagina, talabalarda ham kreativ sifatlar shakllanishi mumkin. Ta'lim jarayonini moslashuvchan, muammoli, tanlovga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish orqali talabalarning qiziqishi, ichki motivatsiyasi va bilish faolligini oshirish mumkin.

Demak, pedagogning kreativligi nafaqat shaxsiy sifat, balki ta'lim tizimini samarali yangilashning muhim omilidir. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan

ta'lim jarayoni talabalarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va innovatsion kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarini haddan tashqari qat'iy va o'zgarmas shaklda rejalashtirish ba'zan talabalarning tanqidiy hamda kreativ tafakkurini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi

mumkin. Moslashuvchan, vaziyatga qarab yangilanadigan va talabalarni faol ishtirokga undaydigan dars modeli esa ularni ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga hamda ta'lim jarayoniga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda o'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan asosiy omillardan biri — kreativlikdir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining mohiyatini anglash uchun avvalo "kreativlik" tushunchasining mazmunini aniqlab olish zarur. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik — o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"dir (Azzam, 2009). Gardner esa kreativlikni shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat sifatida izohlaydi va u yangilikni aks ettirishi hamda amaliy qiymatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Demak, kreativlik nafaqat noodatiy fikrlash, balki amaliy natija beruvchi yangilik yaratish jarayonidir.

Ilmiy tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik masalasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ular o'rtasida bevosita aloqadorlik yo'qligini ta'kidlasa, boshqalar kreativlik va intellekt darajasi o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi (Kim, 2005). Shu bois kreativlikni faqat yuqori intellekt bilan bog'lash to'liq asosli emas; u shaxsning motivatsiyasi, muhit va tajribasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Har tomonlama fikrlash talabalardan masalalarni hal qilish jarayonida ko'plab g'oyalarni hisobga olishni talab qiladi. Aksincha, bir tomonlama fikrlash faqat bitta to'g'ri javobga yo'naltirilgan bo'ladi. Amalda esa masalani tahlil qilish jarayonida har ikki fikrlash turi uyg'unlashadi. Shu sababli kreativlikni rivojlantirishda divergent (ko'p variantli) va konvergent (bir yo'nalishli) fikrlash birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning dolzarb muammolaridan biri — yangi bilimlar, innovatsion usul va vositalar, yangi faoliyat turlarini yaratishga qodir bo'lgan ijodiy shaxsni shakllantirishdir.

A.I. Ostromov va O.F. Ostroumovalarning ta'kidlashicha, ijodiy shaxsni shakllantirish zarurati, birinchidan, uning hayotiy yo'nalganligini belgilashi; ikkinchidan, ijtimoiy ijodkorlikning asosiy omili bo'lishi; uchinchidan esa, ijodiy ta'lim va tarbiyaning konseptual psixologik-pedagogik tamoyillarini o'zida mujassam etishi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shaxsiy kompyuter va internet ta'lim imkoniyatlarini tubdan o'zgartirdi, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni ham ilg'or axborot texnologiyalarini

joriy etish bilan uzviy bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, pedagogik texnologiyalarni joriy etish esa ta'lim sohasidagi islohotlarning markaziy yo'nalishiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa kompetensiyaga asoslangan ta'lim metodikalarini joriy etish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng qo'llashni taqozo etadi.

Kreativlik shaxsning yaxlit xususiyatlarini, zehni tezlik va o'tkirlik darajasini ifodalaydi hamda iqtidorning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Biroq pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Kreativlikni rivojlantirish uchun maxsus metodik yondashuvlar, refleksiv tahlil, tajriba almashinuvi va uzluksiz o'z ustida ishlash zarur. Ijodkorlik va yaratuvchanlik bugungi mutaxassisdan talab etiladigan asosiy sifatlar qatorida yuqori o'rinni egallaydi.

Zamon taraqqiyoti har bir davlat va uning fuqarolaridan muntazam ravishda yangilik sari intilishni, kutilmagan yondashuvlar va innovatsion yechimlarni talab qilmoqda. Ushbu jarayondan ortda qolish esa raqobatbardoshlikning pasayishiga va ilg'or davlatlarga qaramlikka olib kelishi mumkin. Shunday ekan, zamonaviy pedagog shiddat bilan o'zgarayotgan raqamlashtirish davrida faol ishtirokchi

bo'lishi, yangi huquqiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarga moslashishi zarur.

Aynan kreativ qobiliyatga ega pedagoglarga ta'lim tizimini zamon talablari asosida yangilay oladi va mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik va yangilik yaratishga yo'naltirilgan faoliyat kreativ faoliyat sifatida e'tirof etilmoqda. Demak, pedagogning kreativligi — nafaqat shaxsiy sifat, balki milliy taraqqiyot omilidir. Har qanday qobiliyat shaxsga xos murakkab psixologik tuzilma bo'lib, u muayyan faoliyat talablariga mos keluvchi xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Qobiliyat deganda alohida bir sifat emas, balki shaxsning faoliyat talablariga javob bera oladigan hamda ushbu faoliyatda yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi sifatlar sintezi tushuniladi.

Demak, qobiliyat – bu shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon beruvchi ichki psixologik imkoniyatlar majmui hisoblanadi.

Barcha qobiliyatlar uchun tayanch xususiyatlardan biri kuzatuvchanlikdir. Kuzatuvchanlik insonning obyekt yoki hodisadagi muhim belgilarni ko'ra olish, ularni farqlay bilish va mazmunini anglay olish ko'nikmasini anglatadi. Qobiliyatning yetakchi jihatlaridan yana biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur eta olishdir. Tasavvur va tafakkurning uyg'unligi shaxsga mavjud vaziyatdan tashqariga chiqish, yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi.

Qobiliyat taraqqiyotining tabiiy sharti sifatida miya tuzilishining sezgi a'zolari va funksional xususiyatlariga bog'liq bo'lgan layoqat namoyon bo'ladi. Layoqat — bu qobiliyatning biologik asosi bo'lib, u ko'p qirrali xarakterga ega. Shaxs oldiga qo'yilgan talablarning tabiatiga qarab ayni bir xil layoqat asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Tarixan F.A. Gall tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, insonning aqliy va boshqa qobiliyatlari miya yarim sharlarida maxsus markazlarga ega bo'lib, ularning rivojlanish darajasi miya qismlarining hajmiga bog'liq, degan qarash mavjud bo'lgan. Biroq zamonaviy fan qobiliyatlarni faqat anatomik tuzilma bilan izohlash yetarli emasligini, ular ijtimoiy muhit va faoliyat jarayonida rivojlanishini ta'kidlaydi.

Qobiliyatlar, ayniqsa, kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Ularni takomillashtirishning birinchi sharti — faoliyatga bo'lgan ehtiyojni

shakllantirishdir. Mehnatga qiziqish va unga odatlanish qobiliyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shaxsning talantli bo'lishi uning psixik jarayonlari — idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, diqqat kabi sifatlarning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, musiqachi uchun eshitish idroki, rassom uchun ko'rish idroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim qobiliyatlarning takomillashuvida tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs o'z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, bu jarayon shunchaki individual maqsad emas, balki jamiyatga foydali a'zo bo'lib yetishish vazifasi bilan bog'liq bo'lishi lozim. Qobiliyatning haqiqiy qiymati uning ijtimoiy ahamiyatida namoyon bo'ladi.

Kreativ qobiliyat pedagog faoliyatida alohida o'rin tutadi. Bu — o'qituvchining o'z ongida yangi tushunchalarni o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, yangilikka intilish, o'z sohasiga oid axborotlarni tizimlashtirish hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq eta olish qobiliyatidir. Kreativ pedagog o'z faoliyatini doimiy ravishda boyitib boradi, mavjud bilimlar asosida yangi metodik yechimlar ishlab chiqadi.

Kreativlik keng ma'noda tafakkur qobiliyati va har qanday hayotiy jarayonga nisbatan yangicha yondashuvdir. Mazmunan kreativlik kundalik hayotda — ish faoliyatida, shaxslararo munosabatlarda, o'qish jarayonida va o'z-o'zini rivojlantirishda namoyon bo'ladigan kreativ kompetentlikni anglatadi. Ijod tushunchasi faqat musavvir, musiqachi, rejissyor, aktyor yoki yozuvchilarga xos emas. U shifokor, muhandis, pedagog va boshqa mutaxassislar faoliyatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Chunki har qanday kasbda muammoni yangicha ko'ra bilish, samarali yechim topish va yangilik yaratish jarayoni mavjud.

Shunday qilib, qobiliyat va kreativlik shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, ular biologik asos, psixik jarayonlar, muhit va faoliyat uyg'unligida shakllanadi. Ayniqsa, pedagog kasbida kreativ qobiliyat ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika (yunoncha “*paidagogike*” — “paidagogos” — bola va “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati, mazmuni va muammolarini o’rganadigan fan hisoblanadi. Pedagogika shaxs rivojlanishini ilmiy asosda tadqiq etib, ta’lim va tarbiya jarayonining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirish jarayonini ikki asosiy nazariy yo’nalishda o’rganadi:

1. ***Didaktika (ta’lim nazariyasi)*** – ta’lim jarayonining mazmuni, qonuniyatlari, metod va shakllarini o’rganadi.
2. ***Tarbiya nazariyasi*** – shaxsni ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllantirish masalalarini tadqiq etadi.

Qobiliyat — bu har bir shaxsga xos psixologik xususiyat bo’lib, u insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini belgilaydi. Qobiliyat inson hayoti davomida shakllanadi, rivojlanadi va faoliyat jarayonida namoyon bo’ladi. Har bir insonda bir nechta qobiliyatlar mavjud bo’lib, ular kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayot davomida takomillashib boradi. Insonning hayotda o’z o’rnini topishi, kasb yoki hunar tanlashi va unda muvaffaqiyat qozonishi ko’p jihatdan qobiliyat darajasiga bog’liq. Pedagogik qobiliyat esa o’qituvchi faoliyati uchun zarur bo’lgan muhim kasbiy sifatdir. Ayrim shaxslarda pedagogik qobiliyat tug’ma layoqat sifatida namoyon bo’lsa, boshqalarda u ta’lim, tajriba va o’z ustida ishlash orqali shakllanadi. Pedagogik qobiliyat

quyidagi to’rtta asosiy xususiyatni o’z ichiga oladi:

1. *Asosiy xususiyatlar*
2. *Yetakchi xususiyatlar*
3. *Yordamchi xususiyatlar*
4. *Tayanch xususiyatlar*

Pedagogik qobiliyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri — kommunikativlikdir. Kommunikatsiya o’qituvchining o’quvchilar, ota-onalar, mahalla faollari va hamkasblar bilan samarali muloqot o’rnatish qobiliyatini anglatadi. O’qituvchining nutqi, muomala madaniyati, tinglay bilishi va empatiya ko’nikmalari uning pedagogik mahoratini belgilaydi.

Bugungi kunda pedagoglarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadi — kelajak pedagoglarini bilimli, mas'uliyatli va kasbiga sodiq mutaxassis sifatida tarbiyalash, shuningdek, o'quvchilarni barkamol shaxslar etib shakllantirishdan iboratdir.

Qobiliyat — bu insonning muayyan faoliyatga layoqati va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblanadi. U har bir insonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qobiliyat hayot davomida rivojlantiriladi yoki aksincha, undan yetarlicha foydalanilmasa, sustlashib qolishi mumkin.

Bilim esa ilmiy izlanishlar va tajriba natijasida hosil bo'lgan tushunchalar tizimidir. Bilim insonning o'z tajribasi yoki boshqalarning ilmiy faoliyati natijasida shakllanadi. Ilmni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- **Foydali ilm** — inson hayoti va faoliyatida amaliy ahamiyat kasb etadigan bilim;
 - **Foydasiz ilm** — o'rganilgan, biroq amaliyotda qo'llanilmaydigan bilim.
- Ko'nikma — o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida orttirilgan tajriba va bilimlar asosida shakllangan ish usulidir. Bu o'qituvchining bilim va tajribasiga tayangan holda faoliyat yuritish qobiliyatidir.

Malaka esa ongli faoliyatni bajarish jarayonida shakllanadigan, avtomatlashtirilgan kasbiy harakatlar yig'indisidir. Malaka kasbiy intellektning amaliy ko'rinishi bo'lib, tajriba orqali mustahkamlanadi.

Shunday qilib, pedagogika fani shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, pedagogik qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka o'qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik qobiliyat va kommunikativlik o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Demak, malaka o'qituvchining kasbiy intellektiga tayangan holda uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladigan avtomatlashtirilgan harakatlar tizimidir. Malaka pedagogning ongli ravishda egallagan bilim va ko'nikmalari asosida shakllanib, ish faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mohirlik esa pedagogik ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, o'qituvchining kasbiy

tajribasi asosida dars jarayonini Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida tashkil eta olish qobiliyatini anglatadi. Mohir pedagog o'z faoliyatini puxta rejalashtiradi, samarali metodlardan foydalanadi va belgilangan maqsadlarga erishadi.

Mahsuldorlik — muayyan muammoga ijodiy yondashib, unga samarali yechim topish qobiliyatidir. Bunda pedagog avvalo muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladi, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Evristik qobiliyat esa kasbga oid yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni faoliyatda qo'llash va targ'ib qilishni anglatadi. Kreativlik esa mavjud tajriba asosida yangi g'oya, metod va nazariyalar yaratish qobiliyati bo'lib, zamon bilan hamnafas holda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Pedagogik qobiliyatlar funksiyasiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. **Umumiy qobiliyatlar** — aqliy faoliyat, tanqidiy va tizimli fikrlash, tahlil qilish, sintezlash, tezkor reaksiya, diqqatni jamlash va e'tiborlilik kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

2. **Maxsus qobiliyatlar** — tashkilotchilik, muhandislik-texnik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy va musiqaviy qobiliyatlarni qamrab oladi.

Talant esa muayyan faoliyatni mustaqil, mukammal va muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasidir.

Olimlar pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- o'z kasbiga muhabbat va o'quvchilarga mehr bilan munosabatda bo'lish;
- mutaxassislik fanini chuqur bilish va unga qiziqish;
- pedagogik takt va estetik didga ega bo'lish;
- bolalar jamoasiga singa olish;
- mehnatga ijodiy yondashish;
- javobgarlikni his etish;
- tarbiyaviy bilimlarga ega bo'lish.

Pedagogik qobiliyatlar tizimi asosiy, tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlardan iborat.

Kommunikativ qobiliyat pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, mahalla faollari va pedagogik jamoa bilan

samarali muloqotini ta'minlaydi.

Perseptiv qobiliyat — kuzatuvchanlik, o'quvchining ruhiy olamini anglay olish va vaziyatga adolatli yondasha bilishdir.

Empatik qobiliyat — o'quvchilarning hissiy holatini tushunish, ularga hamdard bo'lish va to'g'ri maslahat bera olishdir.

Didaktik qobiliyat — darsni samarali tashkil etish va uni Davlat ta'lim standartlari hamda xalqaro talablar asosida olib borishdir.

Tashkiliy qobiliyat — o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb qilish va ularning iste'dodlarini rivojlantirishdir.

Konstruktiv qobiliyat — o'quv jarayonini puxta rejalashtirish va metodlarni to'g'ri tanlashdir.

Bilish qobiliyati — o'z fanini chuqur bilish bilan birga, unga aloqador fanlardan ham xabardor bo'lishdir.

Anglash qobiliyati — har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga adolatli munosabatda bo'lishdir.

Yetakchi xususiyat har bir pedagogda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu uning individual uslubini belgilaydi. Tayanch xususiyat esa kuzatuvchanlik va ko'ra bilish qobiliyatidir. Yordamchi xususiyatlarga esa hozirjavoblik, tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati, aktyorlik mahorati, pedagogik takt va nazokat kiradi.

Kommunikativ qobiliyatning asosiy yo'nalishlari:

1. O'quvchilarni ishontirish;
2. Ularning ongiga ta'sir etish;
3. Taqlid jarayonini boshqarish.

Pedagog o'quvchiga ta'sir ko'rsatishda hissiyotlarga berilmasligi, har bir o'quvchining psixologik holatini o'rganishi, sinfdagi norasmiy yetakchini aniqlashi va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi zarur.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: talab qo'yish, istiqbolni belgilash, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridan foydalanish.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi:

- sinf xususiyatlarini oldindan bilishi,
- samimiy va demokratik muhit yaratishi,
- munosabatlarni tahlil qilib borishi lozim.

Yosh o'qituvchi uchun xushmuomalalik mezonlari esa o'z ustida ishlash,

kasbiy faoliyatini baholash, autogen mashqlar orqali o'zini boshqarish, milliy muomala madaniyatiga tayanish va nutqiy mahoratni rivojlantirishdan iboratdir.

Shunday qilib, pedagogik qobiliyat — bu o'qituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, u bilim, ko'nikma, malaka, mahorat va shaxsiy sifatlar uyg'unligida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogning kommunikativ, didaktik va kreativ qobiliyatlari uning kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omili hisoblanadi.

O'qituvchi — bu shunday shaxski, u o'quvchini ruhlantirishi, unda ishonch uyg'otishi yoki aksincha, noto'g'ri yondashuv orqali uning ruhiyati va motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki

shaxsni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy subyekt hisoblanadi. U o'z pedagogik qobiliyatlaridan samarali foydalangan holda o'quvchining jamiyatda o'z o'rnini topishiga, mustaqil fikrlovchi va faol fuqaroga aylanishiga ko'maklashishi zarur.

O'qituvchi har bir darsni puxta rejalashtirishi lozim. Dars jarayonini qisqa vaqt ichida, ortiqcha kuch sarflamasdan, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish uning kasbiy mahoratini ko'rsatadi. Mazmunli, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan dars o'quvchilarning bilimni samarali o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Pedagog o'zi faoliyat yuritayotgan sinf jamoasini chuqur o'rganishi, ular bilan samimiy va bevosita aloqa o'rnatishi zarur. Har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'rib, uning qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini aniqlashi hamda shu asosda ularni jamoat ishlari va fan to'garaklariga jalb etishi muhimdir. Bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi va shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Sinf jamoasi bilan muntazam fikr almashish, o'quvchilarning qarash va takliflarini inobatga olish pedagogik jarayonning demokratik tamoyillariga asoslanadi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilariga asosli talab qo'yishi, jamoani adolat bilan boshqarishi va yetakchilikni mas'uliyat bilan amalga oshirishi lozim. Shu bilan birga, sinf jamoasidagi norasmiy yetakchini aniqlab, uning ta'sir

doirasini to'g'ri yo'naltirish ham muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Har bir o'quvchining ruhiy holatini, o'zlashtirish darajasini va ijtimoiy faolligini to'g'ri baholash o'qituvchining perseptiv va empatik qobiliyatlariga bog'liq. O'qituvchi muammoli vaziyatlarga individual yondashib, har bir tarbiyalanuvchiga mos pedagogik yechimlar ishlab chiqishi zarur.

Zamonaviy pedagog nafaqat o'z mutaxassislik fanini chuqur bilishi, balki unga bevosita bog'liq bo'lgan fanlardan ham xabardor bo'lishi talab etiladi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va bilimlarning tizimli o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Demak, o'qituvchi o'quvchining kelajagi uchun mas'ul bo'lgan muhim shaxsdir. Agar sinf jamoasiga kichik bir davlat sifatida qaralsa, unda o'qituvchi boshqaruvchi va yo'naltiruvchi lider, norasmiy sinf sardori esa jamoa ichidagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi faol shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'z xulq-atvori, qobiliyati va faolligiga ko'ra jamoada o'z o'rnini egallaydi. Bu metafora pedagogik boshqaruvning murakkab va mas'uliyatli jarayon ekanligini ifodalaydi.

Shunday qilib, o'qituvchi shaxsiy namuna, kasbiy mahorat va adolatli boshqaruv orqali o'quvchilar jamoasini shakllantiradi, ularni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

1. *Pedagogning kreativlik sifatlari qaysilarni o'z ichiga oladi?*
2. *Qobiliyatlar kasbiy faoliyat davomida qanday rivojlanadi?*
3. *Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?*
4. *Pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlarini sanab bering.*
5. *Pedagogik qobiliyatlar funksiyalariga ko'ra nechiga bo'linadi?*
6. *Kommunikativ qobiliyatning nechta yo'nalishi mavjud?*

9- MAVZU. KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV YONDOSHUV

Reja:

1. *“Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati. Kasbiy kompetentlik sifatlari.*
2. *Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogik kompetensiya tushunchasi.*
3. *Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik savodxonlikni oshirish tizimi.*
4. *Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy yondoshuv.*

Tayanch tushunchalar: kompetentlik, pedagogik kompetentlik, qobiliyat, kasbiy kompetentlik, malaka, mahorat, iqtidor texnologik kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, ekstramental kompetentlik, maxsus kompetentlik

Kompetentlik (inglizcha *“competence”* — qobiliyat) — bu faoliyat jarayonida nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim yoki ko‘nikmalarni egallashni emas, balki muayyan faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha integrativ bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘un holda o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Kompetensiya mutaxassisdan doimiy ravishda o‘z bilimlarini boyitib borishni, yangi ma’lumotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, zarur axborotni izlab topish, uni qayta ishlash va amaliyotda samarali qo‘llay bilishni talab qiladi. Demak, kompetentlik — bu statik holat emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayondir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarni boshqarishda;
- noaniq yoki nostandart vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan oqilona foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatlarda tezkor va aniq harakat rejasini ishlab chiqishda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har bir pedagogni ham to'liq kasbiy kompetent deb bo'lmaydi. Kasbiy kompetentlikka ega pedagog o'z bilimlarini muntazam ravishda boyitib boradi, kreativlikka intiladi, yangi axborotlarni izchil o'zlashtiradi, davr bilan hamnafas bo'ladi, o'z bilimlarini qayta ishlaydi va ularni amaliyotda qo'llashning samarali yo'llarini izlaydi.

Ma'lumki, pedagogik kompetentlik pedagogik jarayon asosida namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayon to'g'ri tashkil etilgandagina ta'lim beruvchi o'z kompetentligini to'liq namoyon eta oladi.

Pedagogik jarayon — bu zarur bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik hamda jismoniy sifatlarini shakllantirish maqsadida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi tomonidan tashkil etilgan hamda yo'naltirilgan faoliyatdir. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim oluvchini jamiyatdagi o'zgarishlardan xabardor qilish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Kasbiy kompetentlik bir nechta asosiy sifatlar orqali namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik

Ijtimoiy munosabatlarda faol bo'lish, kasbiy faoliyatda turli subyektlar bilan samarali muloqot qila olish, ijtimoiy mas'uliyatni his etish.

2. Maxsus kompetentlik

Kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil eta olish, pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholay olish va bilim, ko'nikma, malakalarni izchil rivojlantirish.

Maxsus kompetentlik doirasida quyidagi tarkibiy kompetensiyalar ajralib turadi:

a) *Psixologik kompetentlik* — pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhit yaratish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan ijobiy muloqot o'rnatish, ziddiyatlarni anglay olish va bartaraf etish.

b) *Metodik kompetentlik* — ta'lim jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, shakl, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlash hamda samarali qo'llash.

c) *Informatsion kompetentlik* — axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va undan maqsadli foydalanish ko'nikmasi.

d) *Kreativ kompetentlik* — pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'z ijodkorlik salohiyatini namoyon eta olish.

e) *Innovatsion kompetentlik* — ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

f) *Kommunikativ kompetentlik* — ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali, samimiy va madaniyatli muloqot olib borish.

g) *Shaxsiy kompetentlik* — kasbiy o'sishga intilish, malaka darajasini muntazam oshirib borish, ichki imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish.

h) *Texnologik kompetentlik* — zamonaviy texnika va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.

i) *Ekstremal kompetentlik* — favqulodda vaziyatlarda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish va to'g'ri harakat qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik — bu pedagogning bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifat va kasbiy tajriba uyg'unligida namoyon bo'ladigan murakkab integrativ sifatdir. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogning kompetentligi uning pedagogik jarayonni samarali tashkil etishi, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvi va kreativ yondashuvi bilan belgilanadi.

Har bir pedagog o'z kasbiy kompetentligiga ega bo'ladi va aynan shu sifatlar orqali pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Biroq pedagogik jarayonda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun yuqorida qayd etilgan kompetensiyalarni nafaqat bilish, balki ularni o'z shaxsida mujassam etish ham zarur. Kasbiy kompetentlikning barcha tarkibiy sifatlarini o'zida shakllantirgan pedagog ularni amaliyotda izchil va samarali qo'llay olishi lozim.

Pedagog o'z bilimlarini ta'lim oluvchiga aynan kasbiy kompetentligiga tayangan holda yetkaza olgan taqdirdagina ta'lim jarayonida haqiqiy natijaga erishadi. Chunki kompetent pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi shaxsdir.

Mutaxassis, ya'ni pedagog o'z kasbiy kompetentligini oshirish uchun doimiy

ravishda o‘z-o‘zini tahlil qilishi, o‘z ustida ishlashi va o‘z faoliyatini xolis baholay olishi zarur. Ayniqsa, o‘z ustida ishlash kasbiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biridir. Pedagogning o‘z ustida ishlashi quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka intilish;
- ishchanlik va tashkiliy qobiliyatni rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etish;
- ijobiy shaxsiy sifatlarni shakllantirish va mustahkamlash.

Demak, har bir bo‘lajak pedagog o‘z kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o‘z ustida izchil ishlashi va o‘zini xolis baholay olishi zarur. Pedagog o‘zini to‘g‘ri baholay olgandagina o‘z kamchiliklarini ko‘ra oladi va ularni bartaraf etishga harakat qiladi. Bu esa uning kasbiy yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik nafaqat pedagogika, balki barcha sohalar uchun muhim omil hisoblanadi. Biroq pedagogika sohasida bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki pedagogik jarayon bevosita inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, undagi har bir xato yoki muvaffaqiyat kelajak avlod taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetent ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, “kompetentli pedagog kim?” va “uning shakllanish jarayoni qanday kechadi?” degan savollar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Avvalo, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining farqini aniqlash muhimdir.

Kompetensiya — bu shaxsning muayyan faoliyat sohasida samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

Kompetentlik esa — ana shu kompetensiyalarni real amaliyotda samarali

qo'llay olish, vaziyatga mos ravishda qaror qabul qilish va natijaga erishish qobiliyatidir.

Demak, kompetensiya — imkoniyat, kompetentlik esa — ushbu imkoniyatning amaliy ifodasidir. Pedagogning haqiqiy kasbiy yetukligi aynan kompetentlik darajasi bilan belgilanadi.

Kompetent pedagog — bu o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashadigan, bilimni muntazam boyitib boradigan, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, zamonaviy talablarga mos ravishda ijodiy va innovatsion ishlay oladigan mutaxassisdir. Bunday pedagoggina pedagogik jarayonni samarali tashkil etib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Kompetentlik — bu pedagogning bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va tajribasini o'z ichiga olgan integrativ tushuncha bo'lib, uning muayyan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi. “Kompetensiya” va “kompetentlik” atamaları mazmunan o'zaro yaqin bo'lsa-da, ular orasida farq mavjud: kompetensiya — bu zarur bilim va ko'nikmalar majmui, kompetentlik esa — ushbu majmuaning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish darajasidir.

Bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlash tizimidagi murakkab va dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda pedagoglarni tayyorlash jarayoni nafaqat amaliy, psixologik, metodik va tadqiqotchilik yo'nalishlari bilan, balki kasbiy kompetentlikni shakllantirish talabi bilan ham boyib bormoqda.

Kasbiy kompetentlik tashhisi pedagogning kasbiy shakllanishiga oid muhim xarakteristikalarini o'z ichiga oladi. Jumladan, diagnostik, kommunikativ, boshqaruv va proektiv ko'nikmalar guruhi pedagogning kasbiy yetukligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

Pedagogning bilish faoliyati o'rganilayotgan jarayonlarning murakkabligi, dinamikligi va nostandartligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hodisalarning noaniqligi, chegaralarning nisbiyligi pedagogdan yuqori darajadagi kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish qobiliyatini talab etadi. Shu bilan birga, o'z-o'zini tartibga solish, o'z bilim va malakalarini muntazam takomillashtirish, o'z xatti-harakatlarini boshqalarga nisbatan muvofiqlashtirish

kabi sifatlar kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridir.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligi quyidagi turlarda namoyon bo'ladi:

- *Maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi* — kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

- *Ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi* — jamoaviy faoliyat va hamkorlik ko'nikmalariga egalik, kasbiy muloqot madaniyatini o'zlashtirish hamda o'z kasbiy natijalari uchun ijtimoiy mas'uliyatni his etish.

Bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligi individual sifatlar asosida shakllanadi. Bular qatoriga iroda sifatlari, intellektual salohiyat, hissiy barqarorlik, amaliy ko'nikmalar va o'zini boshqara olish qobiliyati kiradi. Ushbu sifatlar shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga ko'ra, kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligini ifodalaydi. Uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi esa bilim, ko'nikma va malakalar darajasi asosida baholanadi. Demak, zamonaviy ta'lim tizimi pedagogning integrativ kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bo'lajak pedagogni tayyorlash jarayonida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

1. Zamonaviy talablarga javob beruvchi me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlarning (Davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, metodik tavsiyanomalar va boshqalar) mavjudligi;

2. Ilmiy-pedagogik kadrlarning (professor-o'qituvchilar, malakali ustalar, texnik xodimlar) yuqori kasbiy kompetentlik darajasiga va ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

3. O'quv jarayonining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada ta'minlanganligi (zamonaviy auditoriyalar, laboratoriyalar, axborot texnologiyalari, multimedia vositalari va boshqalar);

4. Ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhitning yaratilganligi (o'zaro hurmat, hamkorlik, maqsadlar birligi);

5. Tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz va tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish ko‘p omilli, tizimli va izchil jarayon bo‘lib, u shaxsiy sifatlar, nazariy tayyorgarlik, amaliy tajriba hamda ta‘lim muhitining o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshadi. Zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy vazifasi — kompetent, kreativ va ijtimoiy mas‘uliyatli pedagog shaxsini shakllantirishdan iboratdir.

“Pedagogning kasbiy kompetentligi” tushunchasiga berilgan ta‘rif va tavsiflarni umumlashtirgan holda, uni quyidagicha talqin etish mumkin: pedagogning kasbiy kompetentligi — bu uning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyojlari, qobiliyatlari, mahorati, bilimlari, tajribasi va kasbga bo‘lgan qiziqishlarining integrativ ifodasidir. Ya‘ni, kasbiy kompetentlik pedagogning nafaqat bilimga egaligi, balki ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, kasbiy vazifalarni ijodiy hal eta olishi bilan belgilanadi.

Pedagog kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi uchun:

- ijodiy izlanish jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;
- ijodiy faoliyat samaradorligi uning pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq ekanligini anglab yetishi;
- o‘z kasbiy rivojlanish yo‘nalishini aniq belgilay olishi zarur.

Shu bilan birga, pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mazmunini chuqur anglab, kasbiy o‘shish uchun qaysi yo‘nalishda harakatlanishi kerakligini bilishi muhimdir.

Professionalizm va **kompetentlik** tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, mazmunan farqlanadi. Professionalizm deganda faqat bilim va malaka emas, balki kasbga bo‘lgan munosabat, mas‘uliyat, mehnat madaniyati va faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash tushuniladi. Kompetentlik esa bilimlarning mavjudligi bilan birga, ularni real vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Rivojlangan kompetensiyalar tezda seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini muntazam rivojlantiradi, aniq maqsad va natijalarga intiladi, kasbiy qadriyatlarni shakllantiradi va o‘z faoliyatini belgilangan standartlar asosida tashkil

etadi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talab va standartlarga mos keladigan shaxs chinakam professional bo‘lavermaydi. Chunki ba’zi hollarda bilim mavjud bo‘lsa-da, uni amaliyotda qo‘llash qobiliyati yetarli bo‘lmaydi. Natijada pedagogik faoliyat samaradorligi pasayadi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni quyidagi asosiy turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Maxsus pedagogik kompetensiya

Pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lishni anglatadi. Shuningdek, pedagogning o‘z kasbiy darajasini baholay olishi va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilash qobiliyati ham ushbu turga kiradi.

2. Ijtimoiy pedagogik kompetensiya

Hamkasblar bilan samarali munosabat o‘rnatish, jamoaviy faoliyatni rejalashtirish, muloqot madaniyatiga ega bo‘lish va ish natijalari uchun ijtimoiy mas’uliyatni his etish bilan tavsiflanadi.

3. Shaxsiy pedagogik kompetensiya

Pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, vaqtni to‘g‘ri boshqarish, o‘z ustida ishlash va kasbiy o‘sishga intilish qobiliyatini bildiradi. Shaxsiy kompetensiyasi yuqori bo‘lgan pedagoglar charchoqqa kamroq uchraydi, stressga bardoshli bo‘ladi va vaqt bosimi ostida ham samarali ishlay oladi.

Har bir kompetensiya turi turli bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar majmuini o‘z ichiga oladi hamda pedagoglarda turli darajada namoyon bo‘ladi. Xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun pedagog mazkur kompetensiyalarni uyg‘unlashtira olishi va ularni pedagogik jarayonda kompleks tarzda qo‘llay bilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning kasbiy kompetentligi — bu uning professional yetukligini, shaxsiy rivojlanish darajasini va pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi integrativ sifatdir. Zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy kompetentlikka ega pedagoggina ta’lim jarayonini yuqori saviyada tashkil eta oladi va jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga qodir bo‘ladi.

Kompetentlik qanday shakllanadi?

Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishda eng muhim omil — maxsus kasbiy ta'limdir. Chunki pedagogning kelgusida amaliy faoliyatida qo'llaydigan bilim, ko'nikma va malakalari aynan ta'lim jarayonida shakllanadi. Oliy ta'lim bosqichida egallangan nazariy bilimlar va amaliy tayyorgarlik boshlang'ich kompetensiya darajasini hosil qiladi va keyingi kasbiy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'p bosqichli ta'lim tizimida yangi standart va dasturlar joriy etilgan sharoitda o'quv jarayonini eskirgan usullar asosida tashkil etish mumkin emas. Shu bois ta'lim tizimidagi keng qamrovli islohotlar pedagoglardan ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni va ularni o'quv jarayoniga samarali tatbiq etishni talab etadi.

Pedagog kompetentligining shakllanishida texnologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqat pedagogik texnologiyalardan foydalanishni, balki ularni milliy madaniyat, an'ana va tajriba bilan uyg'unlashtirishni ham nazarda tutadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy xususiyati shundaki, u o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan tarzda o'quv jarayonini puxta rejalashtirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi.

Texnologik yondashuv tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalda ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan aniq amaliy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bunda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- ta'limning umumiy maqsadini aniq belgilash;
- umumiy maqsaddan kelib chiqib, konkret o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki tashxis asosida aniqlash;
- oraliq natijalarni muntazam diagnostik baholash;
- ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish.

Mazkur tamoyillar takrorlanishi mumkin bo'lgan, kafolatlangan natijaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining asosini tashkil etadi.

Tarbiyalash texnologiyasi va kompetentlik

Kompetentlik shakllanishida tarbiyaviy jarayon ham muhim o'rin tutadi. Tarbiyalash texnologiyasi — bu tarbiyaviy maqsadlarga samarali erishishni ta'minlovchi vositalar, shakllar va usullar tizimidir. U tarbiya mazmunini emas, balki belgilangan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini

ishlab chiqadi.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- tarbiyalanuvchiga tafakkur, sezgi va xulq yo'nalishlarida kompleks ta'sir ko'rsatish;

- aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviyligini ta'minlash;
- tarbiya jarayonini tizimli boshqarish;
- ichki va tashqi omillarni hisobga olish.

Pedagog bu omillarning o'zaro ta'sirini chuqur anglagan holda tarbiyaviy jarayonni boshqara olishi lozim. Shundagina kasbiy kompetentlik amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalari va kreativ rivojlanish

Zamonaviy sharoitda pedagog kompetentligini shakllantirish axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. O'quv-tarbiya jarayonida talabalarni:

- ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
- o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishga tayyorlash;
- mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltirish;
- elektron darsliklar, multimedia vositalari va raqamli platformalardan

foydalanishga jalb etish ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv talabada mustaqillik, erkin fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, kelajak kasbiy rejalarini aniq belgilash kabi sifatlarni shakllantiradi. Natijada kompetentlik tashqi talab emas, balki shaxsning ichki ehtiyojiga aylanadi.

Demak, pedagogning kasbiy kompetentligi maxsus kasbiy ta'lim, texnologik yondashuv, tizimli tarbiyaviy faoliyat va doimiy o'z ustida ishlash jarayonida shakllanadi. Kompetentlikni rivojlantirish usullarini mukammal egallagan pedagog o'z kasbiy mahoratini oshiradi, pedagogik jarayonni samarali tashkil etadi va ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlay oladi.

Shunday qilib, kompetentlik — bu faqat bilimga egalik emas, balki uni zamonaviy sharoitda maqsadli, samarali va ijodiy qo'llay olish qobiliyatidir.

Kreativ yondashuv va zamonaviy ta'lim talablari

Kreativ yondashuv va yaratuvchanlik insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, fan va texnologiyadan tortib falsafa, san'at hamda ijtimoiy

fanlarga bo'lgan ko'plab sohalarda tamaddun rivojini ta'minlab kelgan. Tarixan qaranganda, har bir yirik innovatsion sakrash ortida yangicha fikrlash, mavjud bilimlarni qayta talqin qilish va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyati yotadi.

Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar ilgari surish emas. U bilim va tajribaga tayangan, muayyan vaziyatlarda samarali natijaga erishishga imkon beruvchi

real intellektual ko'nikmalar majmuasidir. Kreativ fikrlovchi shaxs murakkab va noaniq sharoitlarda ham moslashuvchanlikni saqlaydi, muammolarga ko'p variantli yondashadi hamda yangicha qarorlar ishlab chiqadi.

Bugungi kunda butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ko'proq ehtiyoj sezmoqda. Raqobat kuchayib borayotgan global muhitda kreativ fikrlash nafaqat individual muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyot omiliga aylanmoqda. Shu bois innovatsiya va kreativlik masalasi zamonaviy ta'lim siyosatining markaziga ko'tarilmoqda.

Kreativ fikrlashning yana bir muhim jihati — uning universalligidir. Ya'ni, har bir inson ma'lum darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Bu qobiliyatni rivojlantirish esa ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida aynan kreativ va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalarini qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi alohida ta'kidlandi. Bu esa ta'lim tizimida sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish zaruratini ko'rsatadi.

Ilgari, kasblar soni nisbatan cheklangan, jamiyat barqarorroq tuzilishga ega bo'lgan davrlarda maktabning asosiy vazifasi savodli inson tayyorlash, ya'ni bilim berishdan iborat bo'lgan. Biroq bugungi texnologik inqilob sharoitida vaziyat tubdan o'zgardi. Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari inson

faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oldi.

Hozirgi texnologik o'zgarishlar ko'lami, tezligi va murakkabligiga ko'ra insoniyat tarixidagi avvalgi davrlardan keskin farq qiladi. Bunday sharoitda faqat savodli bo'lish yetarli emas. Inson o'zgarishlarga moslasha olishi, yangi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila bilishi, tanqidiy va kreativ fikrlay olishi zarur.

Shu bois zamonaviy ta'lim konsepsiyasi maktabni shunchaki bilim beruvchi institutdan ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantiruvchi institutga aylantirish tamoyiliga asoslanmoqda. Maktab endilikda XXI asr mutaxassisidan talab qilinayotgan

quyidagi ko'nikmalarni shakllantiruvchi muhitga aylanishi lozim:

- kreativ va tanqidiy fikrlash;
- muammolarni kompleks hal eta olish;
- axborot bilan ishlash madaniyati;
- kommunikativ va ijtimoiy moslashuvchanlik;
- raqamli savodxonlik;
- mustaqil ta'lim olish qobiliyati.

Natijada maktab jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi hal qiluvchi institutga aylanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish esa nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantirishga qaratilishi lozim. Chunki XXI asrda muvaffaqiyat kaliti — bu o'zgaruvchan sharoitda yangicha fikrlay olish va yangilik yaratish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash va zamonaviy maktab ta'limining ustuvor yo'nalishlari
Maktabni tamomlayotgan o'quvchining xotirasida u yerda olgan bilimlarining faqat bir qismi saqlanib qoladi. Biroq o'n bir yillik ta'lim davomida shakllangan ko'nikmalar inson hayoti davomida unga xizmat qiladi. Albert Eynshteyn ta'kidlaganidek, ta'lim — bu maktabda o'rganganlarimizni unutganimizdan so'ng biz bilan qoladigan ko'nikmadir. Mazkur fikr zamonaviy ta'lim mazmunining mohiyatini aniq ifodalaydi.

Bugungi kunda yangilik va kashfiyotlar eng ko'p amalga oshirilayotgan

davlatlar fuqarolari “yaratuvchan nou-xau ko‘nikmalari”ga ega, ya’ni ular innovatsion fikrlash, tashabbuskorlik va yangilik kiritishga intilish ruhida tarbiyalangan. Shu sababli ko‘plab davlatlar maktab ta’limini shaxsda hayot uchun zarur bo‘lgan universal ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirmoqda.

Bunday ta’lim tizimining bitiruvchisi:

- turli vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lishi;
- murakkab vaziyatlarda qat’iyat va iroda bilan muammolarga yechim topa olishi;
- mustaqil qaror qabul qila olishi zarur.

Bilishga oid ko‘nikmalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- tanqidiy fikrlash;
- muammolarni hal etish;
- bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish;
- yaratuvchanlik va

tadbirkorlik. Shaxsiy

ko‘nikmalar esa:

- samarali muloqot qilish;
- hamkorlik o‘rnatish;
- yetakchilik;
- mustaqil o‘rganishga intilish kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Ayni paytda rivojlangan davlatlardan Kanada, Germaniya, Shveytsariya hamda rivojlanayotgan davlatlardan Vetnam ta’lim tizimini ana shunday ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirgan. Masalan, Xitoyda darsliklarga PISA (O‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi) testlari integratsiya qilingan; Avstraliyada onlayn platformalar orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari baholanadi; Singapurda esa kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta’lim dasturining ajralmas qismiga aylantirilgan.

Singapur tajribasiga ko‘ra, avvalo zamon talablariga mos ko‘nikmalarni shakllantiruvchi darsliklar yaratiladi, shundan so‘ng pedagoglarning malakasi oshiriladi. Bu yondashuv ta’limni tizimli ravishda modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi nisbatan yaqinda shakllangan bo‘lsa-da, innovatsion va ijodiy yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj uning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Kreativ pedagogika fanining metodologik asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika, psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlar tashkil etadi.

Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etish maydoni hisoblanadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarga hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha hamda shaxsan mazmunli tarzda talqin etish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini samaraliroq va o'quvchi uchun qiziqarliroq qiladi.

O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Kreativ fikrlash mazkur qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlaydi va hatto oldindan belgilangan ta'lim maqsadlari doirasida ham samarali natija beradi. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga qiziqishi past bo'lgan o'quvchilar uchun ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'z fikrini erkin ifodalash, o'z salohiyatini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bois zamonaviy maktabda barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyatini hisobga oladigan ta'lim shakllarini joriy etish zarur. Bu nafaqat bilim sifati, balki shaxsning ichki motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash har qanday kasb egasi uchun muhim kompetensiya hisoblanadi. U insonning fikrlash darajasini kengaytiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va innovatsion faoliyatga zamin yaratadi. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari aynan amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va kelgusida mustaqil ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shu sababli ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilarni nafaqat o'qitish, balki o'rganishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, XXI asr ta'limining asosiy vazifasi — bilimli emas, balki fikrlay oladigan, yarata oladigan va yangilikka intiladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. *Kasbiy kompetentlik qaysi vaziyatlarda aniq va ravshan ko'rinadi?*
2. *Kasbiy kompetentlikning asosiy xususiyatlari va ularning mazmuni nimadan iborat?*
3. *Ijtimoiy kompetentlik tushunchasi nimani anglatadi va uning*

ahamiyati qanday?

4. *Maxsus kompetentlik deganda nimani tushunasiz va u pedagog faoliyatida qanday namoyon bo'ladi?*
5. *Kompetentli pedagog kimdir va u qanday belgilarga ega bo'ladi?*
6. *Pedagogning kasbiy kompetentligi tushunchasini qanday tushunasiz va u pedagogik faoliyatda qanday rol o'ynaydi?*

10- MAVZU. KREATIV KOMPETENSIYANING MAZMUNI VA TUZILISHI

Reja:

1. *Kreativ eruditsiya – ijodiy salohiyatning dastlabki komponenti.*
2. *Kreativ pedagogik faoliyat tajribasi – ijodiy salohiyatning*

asosiy komponenti.

3. *Kreativ kompetensiyaning mezonlari va darajalari.*
4. *Pedagogning kreativ kompetensiyasini shakllantirishning*

tamoyillari va omillari.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, bilim, tajriba, ijod, iste'dod, tasavvur, yangilik

Ma'lumki, ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayondir. Ijod jarayonida insonning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi. Shuningdek, bilim, tajriba va iste'dod ham ijodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiy ta'kidlaganidek, ijod bilish jarayonining eng oliy ko'rinishi bo'lib, inson undan samarali foydalanish uchun o'zidagi barcha fazilatlarni ishga solishi zarur.

Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida shaxs izlanadi, kuzatadi, tajribalar o'tkazadi, olingan natijalarni tahlil qiladi va mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosalarning to'g'riligi esa amaliy sinovlar orqali tekshiriladi. Shu jihatdan kreativ kompetentlik shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatining eng faol va samarali namoyon bo'lish shakli sifatida talqin etiladi.

Kreativ kompetentlikka berilgan ta'riflar turlicha bo'lishiga qaramay, ularning umumiy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, kreativ faoliyat natijasida yaratilgan mahsulot yangilik xususiyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, mazkur yangilik avval mavjud bo'lmagan g'oya yoki yechimga asoslanadi. Uchinchidan, har qanday kreativ faoliyat intellektual izlanish va mustaqil tafakkurni talab etadi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyati bir necha mezonlar asosida tasniflanadi. Ijod turi jihatidan u texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik yoki aralash ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ijod darajasiga ko'ra monoijod, multiijod va megaijod shakllari ajratiladi. Qamrovi jihatidan esa bilim sohasi doirasidagi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ijod turlari farqlanadi. Davomiyligiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq muddatli; shakliga ko'ra innovatsion, ta'limiy, investitsion yoki aralash ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ijodiy mahsulotning mazmuni va murakkabligiga qarab ratsionalizatorlik taklifi, ixtiro yoki kashfiyot darajasidagi natijalar kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etilishini talab qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining ijodkorligi, avvalo, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yurita olishi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, masalalar yechishda, insho yozishda, tajriba ishlarini bajarishda yoki o'quv topshiriqlarini hal etishda o'quvchi mavjud bilimlarini yangi vaziyatga moslashtira olsa, bu uning kreativ salohiyatidan dalolat beradi. Demak, o'quvchining ijodi – o'zlashtirilgan bilimlarni real hayot hodisalari bilan bog'lay olish, natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va to'g'ri baholash qobiliyatidir.

Biroq ijodiy faoliyatni samarali tashkil etish o'qituvchi va o'quvchilarning psixologik tayyorgarligiga ham bevosita bog'liq. An'anaviy usullarga haddan tashqari tayanish yangi vaziyatlarga moslasha olmaslikka olib keladi. Bunday holat o'zgalar fikrini qabul qilmaslik, eskicha yondashuvni saqlab qolish yoki yangi muammoni eski usulda hal qilishga urinish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda ikki muhim vazifani hisobga olish lozim. Birinchisi – mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilimga intiluvchanlik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Ikkinchisi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olish ko'nikmasini hosil qilish.

Kreativ kompetentlikni shakllantirish mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega: mustaqil qaror qabul qilish, o'z

imkoniyatiga ishonch, faol izlanuvchanlik, fikrlash tezligi va moslashuvchanligi, g'oyaning o'ziga xosligi va mukammalligi, axborotni qayta ishlash qobiliyati, tasavvur kengligi, uzoq fikrlarni o'zaro bog'lay olish, ko'plab g'oyalarni ilgari surish va ularning asoslanganligini baholay bilish.

Mazkur sifatlarni baholashda test sinovlari, muammoli topshiriqlar va tajriba usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan trening mashg'ulotlari o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotlar natijasida uzluksiz ta'lim tizimida kreativ kompetentlikni shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar umumlashtirildi. Kreativlikni o'rganish va baholash usullari aniqlandi, mezonlari belgilandi hamda ishlab chiqilgan didaktik modelning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlandi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish – zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, u shaxsning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlashi va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlik shakllanganlik darajasini aniqlash va rivojlantirish jarayonida ta'lim mazmuni asosida ishlab chiqilgan ijodiy, o'quv hamda muammoli-vaziyatli topshiriqlarga mos mezon va usullar tanlandi. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ kompetentlikni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash hamda monitoringini amalga oshirish tartibi ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlari orqali tekshirildi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg'ulotlari o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish hamda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kreativ kompetentlik – o'quvchilarning egallagan bilimlarini

chuqurlashtirish, ularni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish hamda aqliy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turidir. Bu, ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarning fan asoslarini puxta o'zlashtirishida va keyinchalik amaliy faoliyatga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot nuqtai nazaridan kreativ kompetentlikning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi:

- *Kreativ kompetentlik bilimlari* – yangi yechimlar ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan tushuncha va tasavvurlarning ongda tizimlashgan holda aks etishi;

- *Kreativ kompetentlik ko'nikmalari* – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laonli amalga oshira olish darajasi;

- *Kreativ kompetentlik malakalari* – ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashtirilgan tarzda bajarish, ya'ni aqliy jarayonning dastlabki bosqichlarini ongli ravishda boshqarib, keyingi bosqichlarni barqaror odat darajasida amalga oshirish qobiliyati.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari har bir mavzu va har bir darsning tarkibiy qismi bo'lishi zarur. Chunki u o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi hamda ta'lim jarayonining umumiy sifatini belgilaydi.

Bu jarayonda ilmiy-texnik ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarga ilmiy atamalar, ixtirochilik va patentshunoslik materiallari haqida ma'lumot berish, axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirish ularning innovatsion tafakkurini rivojlantiradi. Soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, davriy ilmiy nashrlarni o'rganish esa ijodiy salohiyatni boyitadi.

Kreativ kompetentlik o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ilmiy-texnik bilimlar hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida intellektual mahsulot yaratishga yo'naltiradi. Bu esa innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning shakllanishi uchun muhim zamin yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kreativ kompetentlik asosida

innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

- ishlab chiqarish va texnologik yangilanish mexanizmlarini anglash;
- o'z kelajak faoliyati dinamikasini tasavvur qila olish;
- tadbqiqiy bilimlarning ahamiyatini tushunish;
- mustaqil faoliyat yo'nalishini aniqlash;
- ilmiy axborotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish.

Pedagog o'quvchilar bilan o'zaro muloqot jarayonida ularning qadriyatlar tizimi, o'zini rivojlantirishga intilishi hamda ongli faoliyat darajasini inobatga olishi lozim. Chunki shaxs yuksak qadriyatlar va maqsadlar asosida faoliyat yuritmas ekan, ijodkorlik salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi. Natijada pedagog va o'quvchi o'rtasidagi

hamkorlik samaradorligi pasayishi mumkin.

Shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri yosh xususiyatlaridir. Har bir yosh bosqichi o'ziga xos psixologik qonuniyatlarga ega bo'lib, ular xarakter, temperament, qobiliyat va bilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'smirlik davri murakkab va muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarning o'quv, ijtimoiy va mehnat faoliyatidagi o'zgarishlar ularning kelajak mutaxassis sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etadi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni tizimli, yosh xususiyatlariga mos va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shaxs kreativ kompetentligini shakllantirish jarayonida faqat bitta asosiy xususiyatga e'tibor qaratish yetarli emas. Kreativlik ko'p qirrali psixologik hodisa bo'lgani sababli o'smir shaxsining intellektual, ijtimoiy, emotsional va motivatsion faoliyat ko'rsatkichlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish zarur. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun aynan talab etilayotgan sifatlarning salmog'ini oshirishga kompleks yondashuv asosiy mezon bo'lishi lozim.

Psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik muammosi asosan to'rt yo'nalishda o'rganilgan:

1. kreativlik jarayon sifatida;
2. kreativlik natija sifatida;
3. kreativlik qobiliyat sifatida;
4. kreativlik shaxsning barqaror xususiyati sifatida.

Mazkur yondashuvlar kreativ kompetentlikni shakllantirishda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, ta'lim jarayonini Davlat ta'lim standartlari asosida bosqichma-bosqich joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik aynan shu birlik orqali mustahkamlanadi.

Tahlillarga ko'ra, o'quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- masalani hal qilishda qo'llanilgan usullarning umumiyligi va keng qamroviga e'tibor qaratish;
- kreativ usullarni alohida maqsad emas, balki muammoni samarali hal etish vositasi sifatida talqin qilish;
- o'quvchilar tomonidan mustaqil chiqarilgan xulosalar va yangi g'oyalarni darsning asosiy natijasi sifatida baholash;
- axborotni yig'ish, tahlil qilish va talqin etishni kreativ faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash;
- kreativ sifatlarni rivojlantirishni faqat dars jarayoni bilan cheklamay, darsdan tashqari faoliyatlar bilan uzviy bog'lash.

O'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishda ta'lim mazmunini puxta rejalashtirish va standartlashtirish, zarur didaktik shart-sharoitlarni yaratish hamda kreativ pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, intellektual o'qitish tizimlarini joriy etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi.

Ta'lim mazmunining uzviyligini ta'minlashda takrorlanishlarning oldini olish, o'quv soatlarini oqilona taqsimlash, o'qituvchi va o'quvchilarning vaqtdan samarali foydalanishini ta'minlash zarur. O'quv dasturlarida mustaqil fikrlash va mustaqil bilim olishga yo'naltirilgan topshiriqlar, masalalar va testlar yetarli o'rin egallashi lozim.

Shu bilan birga, qo'llanma va metodik tavsiyalar ishlab chiqish bilan cheklanib qolmay, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham zarur. Bu o'quvchilarda kreativ kompetentlik uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi ta'lim mazmunini tubdan yangilaydi. Agar avvalgi ta'lim tizimida "o'qitish" ustuvor bo'lgan bo'lsa, axborotlashuv davrida ustuvorlik "o'qishga o'rgatish", ya'ni mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilmoqda.

Pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- hamkorlik pedagogikasi;
- adaptiv va moslashuvchan pedagogik texnologiyalar;
- o'yin texnologiyalari;
- motivatsion o'qitish texnologiyasi;
- muammoli o'qitish texnologiyasi;
- differensial o'qitish;
- individual o'qitish texnologiyalari.

Mazkur texnologiyalar o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs kreativ kompetentligini shakllantirish jarayoni tizimli, kompleks va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kreativ kompetentlik ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'quvchining kelajak kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslarini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida umumta'lim maktabi o'quvchilarining kompetentligini ta'minlash uchun metodologik talablar hamda didaktik shart-sharoitlarni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayon yangi yondashuvlarga asoslangan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari quyidagi omillarga asoslanadi:

- nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalarga uzviy o'tib borishi ustuvorligi;
- ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi muhitning yaxlitligi;
- ta'lim olish va ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiyani rag'batlantirish;

- muammolilik tamoyiliga asoslanish;
- individual va differensial yondashuv uyg'unligi;
- ta'limning shaxs faolligini ta'minlashga yo'naltirilganligi;
- o'quv-didaktik materiallarning shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida muammoli o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog olim **I.Ya.Lerner** ta'kidlaganidek, ijodiy masala oddiy yoki algoritmik masaladan shunisi bilan farq qiladiki, unda fikrlovchi sub'ekt masalani hal qilish jarayonida o'zi uchun yangi natijaga erishadi.

Ijodiy masala – bu tayyor algoritm asosida yechiladigan yoki standart shakldagi topshiriq emas, balki nostandart yechim ishlab chiqishni talab etadigan muammoli vaziyatdir. Uning g'oyaviy mohiyati faqat yakuniy natijada emas, balki shaxsning

masalaga ijodiy yondashuvida namoyon bo'ladi. Masalaning g'oyasini anglash esa uni muayyan yechiladigan masalalar tizimiga kiritish, umumlashtirish va mantiqiy bog'lash orqali amalga oshadi.

O'quv-tarbiya jarayonida motivatsiya muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarning faol ishtiroki, hamkorligi va yuqori darajadagi qiziqishi bilan chambarchas bog'liqdir. Motivatsiyani uyg'ota olish ijodkor o'qituvchining kasbiy mahorat ko'rsatkichidir.

Motivatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tez moslashishini ta'minlaydi. Aksincha, topshiriqlarning haddan tashqari murakkabligi yoki natijalarning noaniqligi o'quvchilarda beqaror motivatsiya holatini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois topshiriqlar murakkablik darajasi jihatidan bosqichma-bosqich tashkil etilishi, natijalari esa aniq va tushunarli bo'lishi lozim.

Kreativ kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, muammoli o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda motivatsion texnologiyalar uyg'unligi asosida amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy salohiyatini va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi.

Pedagog olim **M.V.Klarin** fikrlariga qo'shilgan holda qat'iy va moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni o'zaro farqlash maqsadga muvofiqdir.

Qat'iy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoni hamda uning natijalariga

nisbatan tashhislilik va qayta hosil qiluvchanlik talabini qo'yadi. Bunda o'qitish jarayoni aniq loyihalashtiriladi, natijalar oldindan belgilangan mezonlar asosida baholanadi va ta'lim maqsadlariga erishish qat'iy nazorat qilinadi.

Moslashuvchan pedagogik texnologiyalar esa ta'lim jarayonining qayta hosil qiluvchanligini ta'minlaydi, biroq o'qitish natijalarini qat'iy tashhislashni shart qilib qo'ymaydi. Ular o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda jarayonni moslashtirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan **kreativ pedagogik texnologiya** quyidagi o'ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, tashkiliy shakllar, metodlar, vositalar, pedagog kadrlar va ichki ta'lim muhiti – shaxs kreativligini

rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

2. Texnologiyaning nafaqat umumiy ta'lim jarayonida, balki lokal pedagogik bosqichlarda ham tizimli qo'llanilishi.

3. O'quvchilar tomonidan ijodiy topshiriqlarni bajarishda yechim ishlab chiqish trayektoriyasini mustaqil belgilash imkoniyatining yaratilishi.

4. O'quvchilarda moslashuvchanlik, harakatchanlik va innovatsion yechim topishga intiluvchanlik sifatlarini shakllantirishga qaratilganligi.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- hamkorlik va hamjihatlik;
- avtodidaktikaning ustuvorligi;
- rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari.

Texnologiyani qo'llash yo'nalishlari

Taklif etilayotgan texnologiyani ikki asosiy yo'nalishda qo'llash mumkin:

a) *Amaliy bilimga tayangan izlanish yondashuvi* – o'quvchilarni real muammolar asosida faoliyatga jalb qilish;

b) *Nazariy bilimga tayangan izlanish yondashuvi* – ilmiy tushunchalar va qonuniyatlar asosida yangi g'oyalar ishlab chiqishga yo'naltirish.

Kreativ pedagogik texnologiyaning produktiv didaktik sikli

Mazkur texnologiya to'rt bosqichli produktiv didaktik siklga asoslanadi:

1-bosqich. Yangi o'quv materiali bilan muammoli ta'lim asosida tanishtirish, ijodiy motivatsiyani shakllantirish hamda ijodiy topshiriqlarni bajarish tartibini tushuntirish.

2-bosqich. Ijodiy topshiriqlarning asosiy xususiyatlarini ochib berish va ularni hal qilish jarayonida o'quvchilarning kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etish.

3-bosqich. O'quvchining o'zi uchun mustaqil o'quv topshiriqlarini belgilashi, muammoni aniqlashi va rejalashtirishi.

4-bosqich. Mustaqil ijodiy faoliyatni amalga oshirish. Bu bosqichda o'quvchi o'zi ishlab chiqqan kreativ mahsulotni asoslash, himoya qilish va baholashni o'rganadi.

Texnologiya fanining imkoniyatlari

O'quvchilarda kreativ kompetentlik uzviyligini ta'minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari kengdir. U:

- ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishtiradi;
- amaliy mehnat orqali kasbiy yo'nalishga tayyorlaydi;
- xaridorgir mahsulotlar yaratish texnologiyalarini o'rgatadi;
- innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq fanlar o'quvchilarni akademik yo'nalish tanlashga tayyorlasa, texnologiya fani ko'proq kasb-hunar yo'nalishiga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Modellashtirishning ahamiyati

O'quvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishni optimallashtirish imkonini beradi. Ilmiy asoslangan model orqali:

- jarayon bosqichlari aniqlashtiriladi;
- natijalar prognoz qilinadi;
- baholash mezonlari belgilab olinadi;
- uzluksiz ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Kreativ pedagogik texnologiya qat'iy va moslashuvchan yondashuvlarning uyg'unligi asosida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. U o'quvchilarda mustaqillik, innovatsion tafakkur va amaliy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shunga ko'ra, ijodkor shaxsga xos ahamiyatli sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish tizimining didaktik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirishning aniq maqsad va vazifalari belgilab olindi hamda jarayonning tarkibiy tuzilmasi asoslab berildi. Model o'z ichiga motivatsion-maqsadli, mazmunli-axborotli, operatsion-faoliyatli va nazorat-baholash darajalarini qamrab oladi. Har bir daraja o'ziga xos didaktik shart-sharoitlarga tayangan holda o'quvchilarning kreativ kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Motivatsion-maqsadli darajada o'quvchilarda ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat, ichki ehtiyoj va qiziqish shakllantiriladi. Mazmunli-axborotli daraja esa kreativ faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, tushunchalar va axborot bazasini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Operatsion-faoliyatli darajada o'quvchilar

ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida muammoni tahlil qilish, g'oya ishlab chiqish, variantlarni solishtirish va optimal yechimni tanlash ko'nikmalarini egallaydilar. Nazorat-baholash darajasida esa o'quvchilar o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish malakasini rivojlantiradilar.

O'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan sifatlarning psixologik xususiyatlari va shaxs rivojlanishiga ta'sir doirasiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratildi. Jumladan, individual-tipologik sifatlarning, sensor va pertseptiv xususiyatlar, diqqatga oid (attension) xususiyatlar, psixomotor sifatlarning, mnemik (xotiraga oid) xususiyatlar, imajinativ (tasavvurga oid) xususiyatlar, tafakkur va irodaviy sifatlarning ajratib ko'rsatildi. Mazkur sifatlarning rivojlanishi o'quvchi shaxsining intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kreativ pedagogik texnologiyalar aynan shu sifatlarni tizimli ravishda rivojlantirishga yo'naltirildi. Bu jarayonda kreativlik shaxsning umumiy qobiliyati sifatida talqin qilindi. Xususan, **David Perkins** tomonidan ilgari surilgan "intellektual chegara" nazariyasiga ko'ra, har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur minimal intellektual daraja mavjud bo'ladi. Agar shaxsning intellekti mazkur darajadan past bo'lsa, u faoliyatni

to'laqonli amalga oshira olmaydi. Biroq intellekt darajasi zarur chegaradan yuqori bo'lsa, faoliyat samaradorligidagi farqlar asosan motivatsiya, shaxs sifatlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Demak, yuqori natijaga erishishda kreativlik va motivatsiya muhim rol o'ynaydi.

Umumiy qobiliyatlar tuzilmasini aniqlashda kognitiv jarayonlarning uch tarkibli modeli asos qilib olindi. Unga ko'ra, har qanday bilish jarayoni tajribani o'zlashtirish, qo'llash va o'zgartirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tajribani o'zlashtirish o'rganuvchanlik bilan, uni samarali qo'llash intellekt bilan, tajribani yangicha shaklda o'zgartirish esa kreativlik bilan bog'liqdir. Shunday qilib, kreativ kompetentlik bilimni shunchaki qabul qilish emas, balki uni yangicha mazmunda qayta yaratish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligini aniqlashda pedagogik kuzatuv elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish muhim ahamiyat kasb etdi. Pedagogik kuzatuv asosida o'quvchilarda shakllantirilayotgan sifatlar monitoring qilindi, mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini optimallashtirish maqsadida yangi mashqlar va treninglar joriy etildi hamda o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan didaktik model o'quvchilarda kreativ kompetentlikni tizimli ravishda rivojlantirish, ularning intellektual va shaxsiy sifatlarini uyg'un holda shakllantirish imkonini beradi. Mazkur model ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, kreativ pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash hamda o'quvchilarni mustaqil, innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. *O'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini qanday turlarga ajratish mumkin?*
2. *O'quvchilarning kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etishning qanday usullari mavjud?*

3. *O'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish mezonlari nimalardan iborat?*
4. *O'quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyalarini sanab bering.*
5. *Kreativ pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari nimada namoyon bo'ladi?*
6. *Kreativ pedagogik texnologiya necha bosqichdan iborat va ularning har biri qanday vazifani bajaradi?*

GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi
Bunyodkor shaxs	ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs.
Davrlashtirish	(yunon. “peridos” – “doira bo‘ylab aylanish”) – muayyan hodisani o‘zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma’lum vaqt birliklariga ajratilishi.
Kasbiy-ijodiy imkoniyat	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.
Kasbiy-ijodiy faoliyat	mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.
Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi	ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.

“Keys-stadi” texnologiyasi	(ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya
Kreativlik	(lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativlikningrivojlanish bosqichi	muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.
Kreativlikningrivojlanish davri	ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi
Kreativ pedagogika	pedagogda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ko‘nikmalarini

	shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan
Kreativ shaxs	jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.
Kreativ shaxsni tayyorlash	ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ
individual	sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni
Kreativ qobiliyat	shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati
Ijod	ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

Ijodiy tafakkur	Tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.
Ijodiy topshiriqlar	Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi.
Ijodkorlik	Muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.
Ijodkor shaxs	ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.
Ijodkor shaxsni shakllantirish Training a creative persponality	kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish
Ijodiy qobiliyat	ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyati
Tabaqalashtirish	(lot. “diferentia” – “farqlanish”, “darajalanish”) – butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi.ivit

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish	shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi
--	---

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. David Watson. The Question of Conscience Higher education and personal responsibility. Oxford, Institute of Education Press. 2014.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Tunik YE.YE. Diagnostika kreativnosti. Test YE. Torrensa. Adaptirovanniy variant [Tekst] / YE.YE. Tunik. – SPb: Rech`, 2006. – 176s.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
5. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU, 2006
6. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi O'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
7. Orlova S.N. Psixologiya. Kreativnaya psixopedagogika [Tekst]: uchebnoe posobie dlya studentov spetsial'nosti 030301 Psixologiya / S.N.Orlova. – Krasnoyarsk: SibGTU, 2009. – 116 s.
8. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaev va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod- moiya", 2010. – 136-140-b.
9. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b.
10. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
11. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.

– T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.

12. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

13. Sherer Y. Texniki kreativnosti: kak v 10 shagov nayti, otsenit` i voplotit` i deyu [Tekst] / Y.Sherer. - M.: SmartBuk, 2009. – 136 s.

14. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

15. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan”, 2005.

16. Turdieva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.

17. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – O‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.

MUNDARIJA

KIRISH		3
I MODUL	KREATIV PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI.....	5
1-mavzu	Kreativ pedagogika fan sifatida.....	5
2-mavzu	Kreativ ta'lim muhiti: mohiyati, xususiyatlari.....	14
3-mavzu	Didaktik ta'minotni yaratishga kreativ yondoshuv.....	49
4-mavzu	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tasavvurni rivojlanishi va pedagogikada ilmiy ijodkorlik.....	68
5-ma'ruza	Kreativ kompetensiya modelining shakllanishi.....	83
6-mavzu	O'qituvchining ta'lim jarayoniga kreativ yondoshuvi.....	91
7-mavzu	Kreativ topshiriqlar tizimi. Kreativ darsning innovatsion tuzilishi.....	104
8-mavzu	Pedagogik qobiliyatni shakllantirishda kreativ yondoshuv.	124
9-mavzu	Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ yondoshuv.....	136
10-mavzu	Kreativ kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi.....	151
GLOSSARIY		164
ADABIYOTLAR RO'YXATI		168

D.N.Taylakova

KREATIV PEDAGOGIKA

(1-qismi)
DARSLIK

Mazkur darslik pedagogika oliy o'quv yurtlarining 60110100-“Pedagogika va psixologiya” bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

Bosishga ruxsat etildi. 08.05.2026 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog'i 10.75, Adadi 100. Buyurtma № 54
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim,
fan va
innovatsiyalar vazirligi

№ 2611-7669-a68d-6d8e-ee78-1186-9079
Hujjat yaratilgan sana: 2026-03-03
Ariza raqami: 234773911

Hujjat berilgan: TAYLAKOVA DILNOZA
NORBEKOVNA
JShShIR: 41802883680024

**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan
o'quv adabiyotini ekspertizadan o'tkazganlik natijasi bo'yicha
MA'LUMOTNOMA**

Muallif haqida ma'lumot

Muallif F.I.O.	Ilmiy darajasi	Lavozimi
TAYLAKOVA DILNOZA NORBEKOVNA	Fan nomzodi (PhD)	Dotsent

Hammualif (lar) haqida ma'lumot

Ushbu so'rov bo'yicha "Hammualiflar haqida ma'lumot" aniqlanmadi.

O'quv adabiyoti haqidagi ma'lumot

O'quv adabiyoti nomi:	Kreativ pedagogika
O'quv adabiyoti turi:	Darslik
Fan bloki:	Majburiy fan
Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) kodi, nomi:	Pedagogika

Ekspertiza xulosasi:	Mazkur o'quv adabiyoti nashr qilishga tavsiya etildi.
-----------------------------	---

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi bo'lib, davlat organlari tomonidan ushbu hujjatni qabul qilishni rad etishlari qat'iyon taqiqlanadi. Hujjat haqiqiylikni repo.gov.uz veb-saytida hujjatning noyob raqamini kiritib yoki mobil telefon yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin.

4142



